

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

“UZLUKSIZ TA’LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR”

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Buxoro-2024

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan **pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi uchun mo'ljallangan** pedagogik qayta tayyorlash 4 oylik kursining Namunaviy o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ishchi o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining 2024 yil 30-avgustdagi 1– sonli yig'lish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: BuxDU pedagogika kafedrası mudiri, p.f.d.,
professor Sh.SH.Olimov.

Taqrizchilar: BuxDU pedagogika professori p.f.d. N.N.Musayeva,
BuxMTI professori, p.f.d. Sh.X.Samiyeva

**O'quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024 yil 30-avgustdagi 1– sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA’LIM METODLAR.....
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....
V.	KEYSLAR BANKI.....
VI.	MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....
VII.	GLOSSARIY.....
VIII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu o'quv O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabridagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-apreldagi PF-5465-son "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 30-iyundagi PQ-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning ta'limda pedagogik innovatsiya, ta'lim jarayonida innovatsion talablarni joriy etish, akademik litseylar pedagoglarida kreativlik sifatlari va malakalari, o'qituvchi kreativligini rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribalar, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion yondashuv, ta'limda innovatsion mobillik, pedagogik dizayn asoslarini o'zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning Pedagogik texnologiya va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

"Uzluksiz ta'limda innovatsion texnologiyalar" qayta tayyorlov va malaka oshirish kurslarining o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalarida ta'limda innovatsion yondashuvlar va integratsiyaning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Modulning maqsadi: liy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlar kasbiy qayta tayyorlash kurslari tinglovchilarini uzluksiz ta'limda innovatsion texnologiyalarga oid kompetensiyalarini rivojlantirish.

Modulning vazifalari: Tinglovchilarni ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bilan tanishtiribgina qolmay, ularni o'quvchilar ongiga singdirish va amaliyotda foydalanish metodlari, texnologiyalari bilan tanishtirishdir. Ta'lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo'nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etish, milliy va hududiy o'ziga xosliklardagi umumiy ko'rinishlarni ochib berish, innovatsion texnologiyalar asosida milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va metodlarini aniqlashtirish hamda uzluksiz ta'limda innovatsion texnologiyalar fanini nazariy va amaliy jihatdan ma'ruza, seminar mashg'ulotlari jarayonida chuqur yetkazish, olingan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

**“Uzluksiz ta’limda innovatsion texnologiyalar” moduli bo‘yicha
soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Hammasi	Jami o‘quv yuklamasi	Jumladan			Mustaqil ta’lim
				Nazariy	Seminar	Ko‘chma mashg‘ulot	
1	Zamonaviy pedagogik texnologiya haqida tushuncha, uning tarixiy rivojlanish davrlari	4	4	2	2		
2	Interfaol ta’lim, uning asosiy shakllari va ishtirokchilari	4	4	2	2		
3.	Muammoli ta’lim texnologiyalari, uning o‘ziga xos xususiyatlari	4	4	2	2		
4.	Tinglovchining turli pedagogik texnologiyalar bo‘yicha dars ishlanmalari taqdimoti	4	4	2	2		
5.	Innovatsion texnologiyalar-pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida	4	4	2	2		
6.	Ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi	2	2		2		
7.	O‘qitishni texnologiyalashtirishda metod va vositalar.	2	2		2		
8.	Ta’limning “Keys-stadi” texnologiyasi.	2	2		2		
9.	Ta’limning «Loyiha» texnologiyasi.	2	2		2		
10.	O‘quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi pedagogik texnologiya	2	2		2		
11.	Ishbilarmonlik o‘yinlari texnologiyasi	2	2		2		
12.	O‘qitishni texnologiyalashtirishda metod va vositalar	2	2		2		
13.	Pedagogik o‘yinlar va ularning turlari	2	2		2		
		36	36	10	26		

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: Zamonaviy pedagogik texnologiya haqida tushuncha, uning tarixiy rivojlanish davrlari (2soat)

Reja:

1. Pedagogik texnologiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanish shart-sharoitlari.
2. Pedagogik texnologiyaning mohiyati, maqsad va vazifalari.
3. Pedagogik texnologiyaning nazariy bloklari.

2-MAVZU: Interfaol ta’lim, uning asosiy shakllari va ishtirokchilari (2 soat)

Reja:

1. Interfaol ta’lim qonuniyatlari, asosiy kategoriyalari, ustuvor tamoyillari.
2. Pedagogik texnologiya turlari.

3-MAVZU: Muammoli ta’lim texnologiyalari, uning o‘ziga xos xususiyatlari. (2 soat)

Reja:

1. Muammoli ta’limning an’anaviy va noan’anaviy modellari.
2. Zamonaviy ta’lim texnologiyasi.
3. Kichik guruhlarda ishlash.

4-MAVZU: Tinglovchining turli pedagogik texnologiyalar bo‘yicha dars ishlanmalari taqdimoti (2 soat)

Reja:

1. Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llash.
2. Pedagogik baholash va o‘z-o‘zini baholash kartasi.

5-MAVZU: Innovatsion texnologiyalar-pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida (2 soat)

Reja:

1. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari.
2. Pedagogik innovatsion jarayon mohiyati.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: Zamonaviy pedagogik texnologiya haqida tushuncha, uning tarixiy rivojlanish davrlari (2soat)

Reja:

1. Pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanish shart-sharoitlari.
2. Pedagogik texnologiyaning mohiyati, maqsad va vazifalari.
3. Pedagogik texnologiyaning nazariy bloklari.

2-MAVZU: Interfaol ta'lim, uning asosiy shakllari va ishtirokchilari (2 soat)

1. Reja:

2. 1. Interfaol ta'lim qonuniyatlari, asosiy kategoriyalari, ustuvor tamoyillari.
3. 2. Pedagogik texnologiya turlari.
4. Pedagogik texnologiyalarni interfaol ta'limda qo'llash.

3-MAVZU: Muammoli ta'lim texnologiyalari va ularning xususiyatlari (2 soat)

Reja:

1. Muammoli ta'limning an'anaviy va noan'anaviy modellari.
2. Zamonaviy muammoli ta'lim texnologiyalari.
3. Kichik guruhlarda ishlashning pedagogik xususiyatlari.

4-MAVZU: Tinglovchining turli pedagogik texnologiyalar bo'yicha dars ishlanmalari taqdimoti (2 soat)

Reja:

1. Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash.
2. Pedagogik baholash va o'z-o'zini baholash kartasi.

5-MAVZU: Innovatsion texnologiyalar-pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida (2 soat)

Reja:

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari.
2. Pedagogik innovatsion jarayon mohiyati.

6-Mavzu: Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi

Reja:

1. Ta'limning an'anaviy va noan'anaviy modellari: zamonaviy ta'lim texnologiyasi.
2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi: hamkorlikda o'qitish va individual topshiriqlar.
3. Kichik guruhlarda ishlash va uning ta'lim jarayoniga ta'siri.

7-Mavzu: O'qitishni texnologiyalashtirishda metod va vositalar

Reja:

1. Pedagogik texnologiya, o'quv jarayoni, o'qitish texnologiyasi, metod va vosita tushunchalari.
2. Ta'lim metodlari tasnifi: aloqadorlik, produktiv va tanqidiy fikrlash.
3. Ta'lim vositalarining turlari va ularning o'qitishdagi o'rni.

8-Mavzu: Ta'limning "Keys-stadi" texnologiyasi

Reja:

1. "Keys-stadi" tushunchasining mohiyati va uning kelib chiqish tarixi.
2. Keys tipologiyalari: texnologiya, Garvard biznes maktabi, pedagogik pasport.
3. Keys-stadi texnologiyasining ta'limda qo'llanilishi va uning samaradorligi.

9-Mavzu: Ta'limning «Loyiha» texnologiyasi

Reja:

1. Ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka: loyiha metodi va uning o'quv jarayonidagi roli.
2. Loyiha turlari: loyiha bosqichlari va individual yondashuv.
3. Guruhli o'qitish va jahon hamda milliy o'qitish tizimlarida loyiha metodining ahamiyati.

10-Mavzu: O'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi pedagogik texnologiya

Reja:

1. O'quv jarayoni: yondashuvlar, tabaqalashtirilgan darajadagi texnologiya.
2. Individual ta'lim texnologiyasi va "o'quvchi papkasi" tushunchalari.

3. O'quvchining yosh va individual psixologik xususiyatlari va ular asosida ta'limning samarali tashkil etilishi.

11-Mavzu: Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi

Reja:

1. Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasining ta'limdagi o'rni va ahamiyati.
2. Ishbilarmonlik o'yinlari va pedagogik texnologiyalar o'rtasidagi bog'liqlik.
3. Ishbilarmonlik o'yinlari tushunchasi va uning o'quv jarayonida qo'llanilishi.
4. O'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi roli, samaradorligi va o'quvchilarga ta'siri.

12-Mavzu: O'qitishni texnologiyalashtirishda metod va vositalar

Reja:

1. Tarbiya, shaxs rivojlanishi va tarbiya texnologiyalarining ahamiyati.
2. Tabaqalashtirilgan yondashuv: jamoaviylik va individual tarbiya.
3. Tarbiya jarayonida prinsiplar, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'rni.

13-Mavzu: Pedagogik o'yinlar va ularning turlari

Reja:

1. Pedagogik o'yinlarning mohiyati, maqsadi va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.
2. Pedagogik o'yinlarning asosiy turlari: rol o'yinlari, simulatsion o'yinlar, kreativ o'yinlar.
3. Pedagogik o'yinlarni tashkil etishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar.

**MODULNI O'QITISHDA
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL
TA'LIM METODLAR**

«SWOT-tahlil» metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• to'siqlar

Namuna: Mashg'ulotlarni tashkil etishda tarbiyachi qanday talablarga rioya qiladi? SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S		
S		
O		
T		

«Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda ularning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. «Xulosalash» metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



Ishtirokchilarni 5-6 kishi



Trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilar tanishtiriladi, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatmalar beriladi.



Har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozadi.



Har bir guruh o‘z taqdimotini o‘tkazadi, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi.

Namuna:

An’naviy, kompetensiyaviy va differensial yondashuv					
An’naviy		Kompetensiyaviy		Differensial	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

«Keys-stadi» metodi

«Keys-stadi» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish; har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

«FSMU» metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

F	• fikringizni bayon eting
S	• fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	• ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	• fikringizni umumlashtiring

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

«Assesment» metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

«Assesment»lardan ma'ruza mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda,

seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, ta'lim oluvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

TEST Mashg'ulotlarni tashkil etishda tarbiyachi qanday malaka va ko'nikmalarni shakllantirib boradi? a) bilimlarni boyitadi, madaniy gigienik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq-xisob b) o'yinli faoliyatlarni faollashtiradi	MUAMMOLI VAZIYAT
SIMPTOM Mashg'ulotlarda sub'ekt tomonidan ob'ektni mavxum tushunchalardan aniq xolatga keltiradi.	AMALIY KO'NIKMA

«Tushunchalar tahlili» metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- ishtirokchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- ishtirokchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Bilim - knowledge	haqiqiy borliq umumiy aksini topadi. Ta'lim oluvchilar hodisa, voqea, qonuniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganadilar va u ularning yutug'i bo'ladi.	
Vaziyat- situation	(situatsiya) (keyingi lotinchadagi situation - ahvol)-muayyan vaziyat, ahvolni hosil qiladigan shart-sharoitlar va holatlar uyushmasi.	
Kasb- profession	bu mehnat faoliyatining barqaror turi bo'lib, u nafaqat aniq bilim va ko'nikmalarni bo'lishini talab qilmay, balki bir xil bo'lgan umumkasbiy bilimlarni ham bo'lishini talab qiladi	
Keys-stadi - Case study	(inglizcha sase - to'plam, aniq vaziyat, stadi - ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan <i>ta'lim uslubidir</i> .	
Konsepsiya-Concept	umumiy g'oya yoki biror-narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi.	
Ko'nikma – the ability to	egallagan bilimlar asosida o'zgaruvchan sharoitlarda birorta faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.	
Malakalar - Qualified	bu, ko'p marta takrorlash natijasidagi mashinal (beixtiyoriy), harakatlardir.	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

Venn diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

«Blis-o'yin» metodi

Metodning maqsadi: tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda pedagog tarbiyachi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonitirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi pedagog tarbiyachi tomonidan o'qib eshittiriladi, va ta'lim oluvchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. «To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo'lsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. Shundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Pedagog tarbiyachi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: Zamonaviy pedagogik texnologiya haqida tushuncha, uning tarixiy rivojlanish davrlari (2 soat)

Reja:

1. Pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanish shart-sharoitlari.
2. Pedagogik texnologiyaning mohiyati, maqsad va vazifalari.
3. Pedagogik texnologiyaning nazariy bloklari.

“Pedagogik texnologiya” fanining maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya amaliyotida pedagogik texnologiyalar uch daraja- da qo'llaniladi:

1. **Umumpedagogik daraja.** Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) darajada pedagogik texnologiyaning umumiy qonuniyatlari, konseptual asoslari, o'qituvchi va o'quvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqiladi.

2. **Xususiy metodik darajada** muayyan bir o'quv fani, kursni o'qitish jarayonining maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida ta'lim mazmunini o'quvchilar ongiga singdirishda foydalaniladigan o'qitish metodlari, vositalari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. **Lokal (modul) darajada** ta'lim-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismida mazkur qismning xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi.

Pedagogik nazariyalar jamlanmasi bo'lgan pedagogikada katta hajmdagi nazariy bilim va amaliy tajriba to'plangan. Ammo yigirmanchi asrning ikkinchi yarmiga qadar mashhur pedagoglardan birontasi ham izdoshlari uchun xuddi o'zlari singari mashg'ulotni yuqori darajada o'tkazishlariga imkon beradigan pedagogik yo'nalishni (tsiklni) ishlab chiqmagan. Sababi, balki, o'tmishdagi mashhur pedagoglarning metodlarida ko'proq pedagog shaxsi inobatga olingan bo'lsa kerak. Ularning izdoshlarida nimadir yaxshiroq chiqqan bo'lmasa, ammo umuman olganda natija asoschilarnikidek bo'lmagan.

"Bizning pedagogik, ishlab chikarishimiz, - yozgan edi A.S.Makarenko, - hech qachon texnologik mantiq asosiga qurilmagan, u doimo axloqiy tartibga asoslangan. Aynan mana shuning uchun ham bizda ishlab chiqarishning barcha muhim bo'limlari: texnologiya jarayonini, ish bajarilishini hisobga olish, yaratuvchilik (konstruktorlik) ishi, moslamalarni qo'llash, nazorat, ishga tushirish, yaroqsizga chiqarish degan tushunchalar yo'q".

"Texnologiya" atamasi deganda ashyo yoki yarim xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirish uchun holati, shakli, xossasi, xususiyatlarini o'zgartirish usullari majmuasi tushuniladi va u moddiy ishlab chiqarish sohasiga taalluqlidir.

Insonning ixtiyoriy faoliyat sohasining rivojini quyidagi tasvir bilan izohlash mumkin:



“Texnologiya yaratilguncha shaxsiy mahorat xukmronlik qilgan. Ertami, kechmi, shaxsiy mahorat mujassam ifodasi texnologiya boʻlgan "jamoah mahoratiga" oʻz oʻrnini boʻshatib beradi".

1-jadval

Shaxsiy mahorat	Umumiy texnologiya
1. Jarayon boshidan oxirigacha xodim tomonidan bajariladi.	1. Jarayon boʻlaklarga ajratiladi, har bir xodim oʻz boʻlagini bajaradi
2. Jarayonga bogʻliq boʻlgan barcha bilim va iker-chikirlarni bilishi zarur.	2. Faqat oʻziga biriktirilgan jarayon qismi bilishi zarur
3. Barcha ishini oʻzi bajarishi zarur.	3. Barcha ishini oʻzi qilishdan ozod etuvchi "tayyor" ishlanmalar tatbiq etiladi
4. Jarayon davomli (oʻzoq muddatli).	4. Jarayon birmuncha tezlashadi
5. Mahsulot sifatli.	5. Mahsulotning sifati past emas
6. Ichki tuygʻu, sezgi va tajribaga asoslanadi .	6. Ilmiy asoslangan hisob va bilim
7. Mahsulot ishlab chikaruvchi imkonlari bilan cheklanadi .	7. Mahsulot ayrim ishlab chikaruvchilarning imkoniyati bilan chegaralanmaydi. Ommaviy ishlab chikarishni uyushtirish mumkin .

Sanoatda texnik hujjatlar talablariga aniq rioya qilinib, ijrochining shaxsiga bogʻliq boʻlmagan holda kafolatlangan natija beradigan minglab texnologik jarayonlar ishlab chiqilgan. Bunday texnologik jarayonning asosi boʻlib detalning ishchi chizmasi va yigʻma birliklar chizmasi xizmat qiladi. Ularning talablariga aniq rioya qilish detallarning oʻzaro almashinuvchanligini taʼminlaydi, texnologik jarayonning takrorlanadigan qadamlari esa qayta tiklanadigan texnologik toʻzilmani tashkil qiladi. Mana shuning uchun ham Oʻzbekistonda chet el texnologiyasi asosida ishlab chiqariladigan avtomobilning sifati Janubiy Koreyada ishlab chiqarilgan avtomobil sifatidan farq qilmaydi.

Sanoatda "yuksak texnologiyalar" iborasi bor. Ular, odatda, juda murakkab boʻladi, katta sarmoyalar sarflanishini talab qiladi, fanning soʻnggi yutuqlariga asoslanadi, xodimlardan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Shunday boʻlsada, ular mahsulotning yuqori sifati va raqobatbardoshligini, pirovard natijada salmoqli foydani taʼminlaydi. Pedagogik texnologiyani oʻqitishdagi "yuksak" metodika qatoriga kiritish mumkin, ammo uning joriy qilinishi katta sarflarni talab qilmaydi. Taʼlim sifatining kaliti pirovard oqibatda alohida oʻquv yurti va aniq oʻqituvchi deydigan boʻlsak, pedagogik texnologiyani oʻzlashtirish asosan, pedagoglarni oʻqitishni talab qiladi.

Pedagogikada takrorlanadigan toʻzilmani yaratish qiyin. Bunga oʻquv (taʼlim-tarbiyaviy) vazifalarining turliligi, taʼlim mazmuni boʻlaklari va oʻquv materiallari turlarining xilmaxilligi, ularni bilish faoliyati uslubining bir xilda namoyon boʻlmasligi va koʻplab boshqa omillar toʻsqinlik qiladi.

2. "Pedagogik texnologiya"ning oʻquv fani sifatida shakllanishi. Pedagogik texnologiyaning nazariy gʻoyalari. Pedagogik texnologiya XX asrning 70-80 yillarida AQSHda kashf qilingan va keyinchalik dunyoning koʻp mamlakatlariga tarqalgan. U

YUNESKO dek nufo'zli tashkilot tomonidan tan olingan. YUNESKO pedagogik texnologiya o'zlashtirilishiga ko'maklashgan, masalan, 1996 yyunda Ierusalimda, keyin 1997 yilda Manila (Fillipin Respublikasi)da ta'lim innovatsiyalari va texnologiyalari bo'yicha xalqaro konferentsiyalari o'tkazilgan.

Pedagogik texnologiyalar eng tezkor ravishda Janubiy Koreya (M.V. Klarin, 1989) hamda Yaponiya, Singapur, Janubiy-Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlarida tajribaviy sinovdan o'tgan va joriy qilingan. Bu ta'lim sifati sezilarli darajada ko'tarilishining sabablaridan biri bo'lib o'quvchilar xalqaro konkurslarda birinchi o'rinlarni egallashi orqali namoyon bo'ldi.

Pedagogik texnologiyani o'zlashtirgan mohir pedagoglarga mazkur usulning an'anaviy usuliga ko'ra samarali ekanligi ma'lum. Bu esa maktab pedagoglari, o'rta maxsus, kasb-xunar va oliy maktab professor-o'qituvchilari uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda pedagogik texnologiyani o'zlashtirish va amalda qo'llash zarurligini bildiradi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, talabalarni o'qitishni jadallashtirish" ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy xujjatlarda "yangi pedagogik texnologiya", "ilg'or pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya" iboralari keng qo'llanilmokda. Ammo "pedagogik texnologiya" tushunchasi hali ham bir qolipga tushirilmagan, qomuslarda izohlanganicha yo'q, uning mazmunining yagona talqini ishlab chiqilmagan shuning uchun, iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud. Bo'larning orasida e'tiborga loyiqrog'i YUNESKOning ta'rifidir: "Pedagogik texnologiya - bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir".

Bu ta'rifdagi asosiy tushunchalar "tizimli metod" ekanligi ravshan, qolgan barcha so'zlar pedagogik texnologiyaning tizim sifatidagi tarkibiy qismlarni ifodalaydi. Aynan tizimli yondoshuv pedagogik texnologiyani o'qitishda boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish metodlari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash - ko'pincha an'anaviy o'quv jarayonida etishmaydigan narsalardir. Ta'kidlash joizki, jarayon (texnologiya) deganda jarayonlarni amalga oshirish yo'riqlari haqidagi bilimlar va vositalar majmuasi hamda (ob'ektni) sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayonning o'zi ham tushuniladi.

Pedagoglarning faoliyatida ba'zida "pedagogik texnologiya" tushunchasi bilan foydali bo'lsada avval o'zlashtirilgan va texnologik qurilmagan o'qitish uslublari ataladi. Aslini olganda, pedagogik texnologiya - bu o'qitishda o'ziga xos bo'lgan yangicha (innovatsiya) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muxandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.

O'qitish nazariyasi, metodikasi va texnologiyasining nisbatlari qanday? G.I. Sarantsev ushbu savolga quyidagicha javob bergan: "Metodika nazariy qoidalarni amaliy hodisalar tengligiga o'girish bilan belgilanadi. O'qitish texnologiyasi o'qitish jarayonidagi barcha jarayonlarning o'zaro bog'liqligini batartib tashkil qilish, bosqichlar ketma-ketligi, ularni amalga oshirish shartlarini mavjud imkoniyatlar bilan bog'lashi zarur va shunga o'xshash. Jarayonlarni (xodisalarni) texnologiyalashtirishning bosh maqsadi belgilangan (loyihalashtirilgan) namunadagi mahsulotni olishdir.

Fanda o'qitish nazariyasi ushbu fanni o'qitish bo'yicha metodik tizimlarning faoliyat qonuniyatini ochib beradi, metodika ularning tadbqiqini, texnologiya esa ushbu modelni amalga oshirish usullarini ishlab chiqaradi. Masalaning bunday qo'yilishida texnologiyannng vazifasi maqsadlarni tashxislash va sharoitlar (uslublar, shakllar, vositalar, bog'lanishlar) ni aniqlash, ya'ni belgilangan maqsadga erishishga imkon beruvchi jarayonlarni loyihalashga olib keladi. Shunday qilib, texnologiya nazariya va metodikani inkor etmoqda, balki u keyingilarga (nazariya va uslubiyotga) asoslanadi va samaradorligi ularning ravojlanish darajasiga bog'liq".


O'quv tarbiyaviy jarayon texnologiyasi pedagogik majmuaning tizimlantiruvchi bo'lagi deb tushuniladi. Faqat texnologiya barcha pedagogik tizim bo'laklarini birlashtiradi. 1-rasmda berilgan tasvirda ushbu fikr yaqqol ko'rinadi.

Pedagogik texnologiyani tushuntirishning jiddiy ko'rinishini keltiramiz:

- maqsadning tashxisli tasviri;
- pedagogik jarayonlarning qayta takrorlanishi (shu jumladan bosqichlar bo'yicha ko'rsatmalar, ularga mos o'quv maqsadlari, o'quvchi va o'qituvchining faoliyatlari);
- pedagogik natijalarning qayta takrorlanishi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya tashxis etilgan maqsadga erishish uchun qat'iy yo'naltirilgan o'quv jarayonlarning qayta takrorlanuvchi metodikasidir, yoxud pedagogik texnologiya o'quv jarayonining texnologiyasi sifatida qaraladi.

To'planning mazmuni va jarayoni bo'yicha malakali mutaxassislar guruhi ishonchli o'qitish tizimini texnologik yondoshuvlar asosida loyihalashtirgan va tayyorlagan taqdirda o'rta miyona pedagog ham yuqori natijalarga erishishi mumkin.



Texnologik yondoshuvda o'quv ashyolari aniq qayd etilgan o'quv maqsadiga mos holda ishlab chiqilgan, maxsus qismlarga (modullarga) ajratilgan, o'quv muqobil yo'llarini ko'zda tutadi, har bir qismi test va qo'shimcha tuzatishlar kiritish bilan hamohang bo'ladi. O'quv ishlari yuqori natijalarga erishishga qaratilgan, bunday yo'naltirilganlik mashg'ul bo'lish, musobaqalashish va o'zaro yordamlashish tushunchalaridan holi emas. Shu bilan birga u butun ta'lim jarayoniga reproduktiv ko'rinish beradi. Shuning uchun u eng zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatishda ko'proq samara beradi. V.I.Orlov (1998) shunday deydi: "Hozirgi paytda reproduktiv o'quv jarayoniga ikkinchi darajali deb qaralmoqda, holbuki, odamlar butun hayoti davomida faqat reproduktiv mehnat bilan banddir, aks holda u o'zi eng zarur narsalar bilan ta'minlay olmas edi. Tarbiyalanuvchilar faoliyatida reproduktivlik asosiy o'rinni egallashi lozim va shunday sharoitdagina eng zarur bilimlar hajmini egallashi va ijod uchun munosib sharoit yaratishi mumkin".

Shuni ta'kidlash joizki, ma'lum sharoitlarda bir o'quv mavzusini reproduktiv usulda ikkinchisini - izlanuvchan-tadqiqot usulida o'zlashtirish qulaydir. Shunday qilib,

reproduktiv o'qish bosqichida pedagogik texnologiyani o'zlashtirish izlanuvchan-tadqiqot usuliga asoslangan pedagogik texnologiyaga o'tishning mustahkam tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

Mashhur qo'shiqda aytilgan iboradek - "reproduktiv o'qishga g'ururli qaramang". Faqat boshlang'ich davrda mahsuldorlik bosqichiga asoslangan, murakkab bo'lmagan o'zlashtirish jarayonini egallay borib, yuqoriroq bo'lgan izlanuvchan-tadqiqot yondashuviga o'tish mumkin bo'ladi. SHunday qilib, pedagogik texnologiya doirasida evristik, ijodiy yondoshuvga imkon yaratiladi, ushbu fikr kelgusi bilimlarda namoyish etiladi.

Hozirgi paytda O'zbekiston ta'lim tizimida aniq ziddiyat paydo bo'lgan: bir tomondan talaba va o'qituvchilarning bilim olish camaradorligini oshirish manfaatida pedagogik, texnologiyani o'zlashtirish zarur hamda ushbu pedagogik texnologiya pedagogik innovatsiya istiqbolida foydalaniladi, ikkinchi tomondan, vaqt bilan hamohang ravishda pedagogika fanining so'nggi natijalarini ham o'zlashtirib borish (axborot, kommunikativ texnologiyalar, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va boshqalar) zarur.

Ushbu ziddiyatni bartaraf etish ta'lim tizimining rahbarlari, malaka oshirish tizimidagi professor-o'qituvchilarning imkoniyatlarini jamlash va ular tomonidan pedagogik fan yutuqlarining o'zlashtirilishini taqazo etadi.

Pedagogik texnologiya o'qitish xususiyatlarini uning maqsadga yo'naltirish, pedagog va ta'lim oluvchining o'zaro munosabatlari, ta'lim jarayonida ularning dunyoqarashlari kabi jihatlarini yuqori ahamiyat darajasiga ko'taradi.

O'qitish texnologiyasining keng qo'llanila boshlanishi quyidagi savolni keltirib chiqardi: moddiy ishlab chiqarishdagi keskin chegaralar, standartlar va loyihalar ta'lim sohasiga ko'chirilishi kerakmi? T.S.Nazarova (1999 y.) esa savolni kengroq qo'yadi: «Agar ta'lim tizimi texnologiyalashgan jamiyat bilan yagona oqimda ekanligi tan olinsa, texnologiyaning afzalligi nimalarda namoyon bo'ladi? T.S. Nazarova keyinchalik mushohada yuritadi: «Qo'yilgan savolga javobni chamasi avvalo, tizimning umumiy nazariyasidan qidirish lozim. Ayni paytda "tartibga solish masalalarini" echishda tizimli yondoshuv mohiyatini aniqlash lozim". Kibernetika va ekologiya tizimining umumiy nazariyasidan, lozim bo'lgan turli-tumanlik qonunidan ma'lum bo'lgan, ya'ni yashash uchun ko'rashish evolyutsiyasi davomida tizimni tabiatdagi umumiy tendentsiyalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni soddalashtirish va murakkablashtirishga oid paradoksni hal etgan ierarxik kompensatsiya qonuniga mavzularini tavsiya etishni murojaat etamiz. Qo'shimcha qonuniyatning mohiyati quyidagicha: xilma-xillikning yuksak tashkiliy darajasi undan oldingi xilma-xillik darajasini cheklaydi. Qonuniyatni turli bilim sohalaridagi misollar bilan namoyish etish mumkin. Ta'lim sohasida uni qanday tashkil qilish mumkin? Fikrimizcha, ta'lim tarbiya jarayonini me'yorlar, standartlar, chegaralar, algoritmlar vositasida sezilarli soddalashtirmay turib, ta'lim tizimidagi murakkablik, boshi berk yo'l va betartiblik xavfini engib bo'lmaydi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida texnologiyani ta'lim jarayoniga bevosita qo'llash bilan ushbu maqsadga erishish mumkin. Buning natijasida o'quv jarayonini ierarxik tashkil etish bosqichini soddalashtirishga erishiladi va bu yuqori bosqich uchun ma'lum imkoniyatlar yaratadi: "O'z navbatida, mumkin qadar o'quv jarayonining soddalashuvi yuqori darajadagi ta'lim muammolarini, maqsadlarini, o'qitishning yangi yo'nalishlarini, ijodiy rivojlantirishni, aks aloqalarini va umuman, ta'lim jarayoni faoliyati turlarini ko'paytirish imkonini beradi».

2-jadvalda o'qitishga texnologik yondoshuvning umumiy tavsifini ko'rib chiqamiz (batafsil emas).

O'quv jarayonining texnologik modeli negizi va uning muayyan amaliyoti an'anaviy ta'lim berishni isloh etish jihatidan innovatsion mohiyat kasb etadi. Pedagogikada ham texnologik, ham izlanuvchan yondoshuvlar zarurligini ta'kidlaymiz: har birining afzallik tomonlari mavjud va ularni samarali qo'shib ishlatilishi ma'qul.

2-jadval

Yondoshuvlarning qiyosiy tahlili: an'anaviy, reproduktiv va produktiv pedagogik texnologiyalar

Tushuntirish, namoyish etish (tavsianomali, an'anaviy yondoshuv)	Pedagogik texnologiya	
	Reproduktiv	Produktiv (muammoli izlanuvchan) daraja
Umumiy tavsif		
Aniq, o'quv maqsadlarsiz, o'qituvchidan o'quvchiga axborotning o'zatilishi	Kafolotlangan natijalarga erishishga yo'nal-tirilgan o'quv jarayonini islox et-ishga qaratilgan inno-vatsiyalar	Izlanuvchan o'quv-idrok etish jarayonini tashkil etishga qaratilgan, o'quv jarayonini qay-ta shakllantiruvchi innovatsiyalar
O'qitish harakteri		
Bilimlar o'quvchiga «tayyor» holda berilla-di, o'quvchi mavzuni tushuntiradi, turli yo'llar bilan uning o'z-lashtirilishini, mu-shohodasini va xoti-rada saqlanishini ta'minlaydi.	Mavzu haqida axborot-ni e'lon qilish, namunaga muvofiq harakat-larni shakllantirish, yuqori samarali ta'limga yo'naltirish va uning qayta-qayta takrorlanishiga erishish.	Yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash ko'nikmasini shakllantirish, egallangan bilimlarni yangi sharoitlarda qo'llay bilish.
Ta'lim jarayonining yo'naltirilganligi		
Odatda aniq ko'r-satilgan va qat'iy tushuniladigan o'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan. Ho-tirada bexato tiklash maqsa-dida xotirada saqlashga doimo urg'u berish. O'quv mate-rialini etarli idrok qilinmasligi oqi-batida fikrlashning faollik darajasi past	O'qitish kutilayotgan na-tijalari aniq qayd etib boriladigan qayta tinglovchi konveyer ja-rayoni tariqasida olib boriladi. Buning uchun pedagogik texnologiya, ya'ni tarkibida kategoriyalar, asosiy turlari ajratilgan maqsadlar tizimidan va ketma-ketligidan (ierarxiya) foydalaniladi	O'quvchilarda yangi tajribalarni mustaqil o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirish. O'qituvchi va o'quvchilar fao-liyatining yo'nalishi yangi bilimlar, faoliyat usullari, fikrlar yaratishga qaratilgan.
Tashabbus		

O'qituvchiga mansub	Asosan o'qituvchiga tegishli	O'quvchilarga beriladi
Qiziqish harakteri		
Tashqaridan	Ko'pincha tashqi	Ko'pincha ichki
Pedagogning vazifalari		
O'quv axborotining asosiy etkazuvchisi. Aso-siy diqqat o'qitish mazmuniga qaratiladi. Asosiy maqsad axborot berish va nazorat qilish. Odatdagi OTMda 80% vaqt o'qituvchi ma'ruzasi bilan band bo'ladi.	Moslashtirilgan, standartlashtirilgan mavzular bilan o'quvchilarniig xatti-harakatlarini tashkil eta-di, maslahatlar turli vositalar bilan etalon natijaga erishishni ta'minlaydi	Pedagog - "rejissyor", "trener" yoki "dirijyor" mavqeida o'quvchilarda izlanish, tadqiqot tajribasining muhim yo'nalishlarini topish ko'nik-masi bilan shakllantiradi.
Jarayon harakteri		
Barcha imkoniyatlarni xotira-da saqlashga qaratish. Mavzuni tushuntirish davomida o'qituvchining auditoriyadagi mavqei ustun, o'quvchilar faol-ligiga yo'l qo'yiladi	Harakati (faoliyati) orqali o'qitish, harakatlari-ning berilgan namuna-sini o'zlashtirish, ular-ni bajarish mashqi. O'qitishning faol metodlarini keng qo'llash.	Ta'lim oluvchi o'qituvchi rahbarligida ta'limiy vazifalarni, muammoli vaziyatlarni echadi, ularni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xu-losalar chiqarish bo'yicha mashq-lar echadi. Natijada ularda mustahkam bilimlar hosil bo'-ladi. Pedagog faoliyati kela-jakka qaratilgan. Mustaqil o'quv faoliyati nisbati yuqori.
Uslub		
Shaxsiy obro'ga asoslangan qatag'on yo'nalishga ega.	Demokratik	Demokratik, rag'batlantiruvchi
Aksariyat ishlatiladigan o'qitish usullari, metodlari va shakllari		
Mahsuldor usul-ning turg'un ko'rinishi. Ko'pchilik o'quvchilar muammoli va faol o'qi-tish usullaridan bexa-bar va ular faoliyati monolog va axborot o'zatishga asoslangan	Mazmunni boshqarish, o'quv mavzu-lardagi murakkablikni mezonlab borish; ta'-lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qi-tish.	O'quv mavzularini mantiqiy taqsimlash turliligi, xilma-xil ko'rgazmalar; texnik vositalarni samarali qo'llash, kichik guruhlarda dars uyush-tirish, o'qish jarayonida hamkorlik, o'quv o'yinlarini ta'limda qo'llash; ta'lim oluv-chilarni ilmiy tadqiqot va izlanish faoliyatiga jalb qilish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish.

Keyingi paytlarda jamiyatimizda har bir inson uning boshlang'ich bilim darajasi qanday bo'lishidan qal'i nazar, istalgan sohada bilim olishga haqli deb topildi va uning kelajakda davlat muassasalarida yaxshi mansab egallashi maqsadida ta'lim muassasalariga jalb qilish odat bo'lib qoldi. O'quv muassasalariga faqatgina bir necha fandan testlar topshirgan holda kirishni tashkil qilish ham o'quvchilarning dunyoqarashi va bilimlarining chegaralangan hamda bir tomonlama bo'lishiga sabab bolmayapti. Bu mamlakat kelajagi bilan uzviy bog'liq strategik masala bo'lgani uchun ham ta'kidlamasdan boshqa ilojimiz yo'q. Bundan tashqari, ta'lim berish jarayonida asosiy diqqat e'tibor ta'lim muassasalarida qanday fanlardan dars berish, qanday ta'lim standartlariga rioya qilish va qanday kitoblardan foydalanishga qaratildi, xolos. Bunda ming afsuski, ta'lim berishning asosiy omili va yurituvchi kuchi bo'lgan bir nima yoddan chiqarildi - bu eng asosiy omil esa shak-shubhasiz - O'QITUVCHIDIR!

“Pedagogik texnologiya” fanining qonuniyatlari, asosiy kategoriyalari, ustuvor tamoyillari

1. Ta'lim natijalarining kafolatlanganligi. – Korxonada mahsulot sifati qanday kafolatlansa, texnologik ta'limda ham ta'lim natijasi shunday kafolatlanadi. – Pedagogik texnologiya – bu intellektual mahsulot ishlab chiqaruvchi konveyerdir. Undan chiqqan mahsulotlarning sifati etalon asosida belgilangan va kafolatlangan bo'ladi. – Ta'lim natijalarini qayd qilish uchun maxsus testlar, jadvallar, pedagogik taksonomiyalar qo'llaniladi. Ular asosida o'quvchilarning xatti-harakatlari baholanadi.

2. Ta'limning amaliy xarakterda ekanligi. – Yuz marta ko'rgandan bir marta bajargan afzal. – Texnologik ta'limda faqat bilim emas, ko'nikma va malakalar ham orttiriladi. – Ta'limning nazariyga nisbatan amaliy xarakteri kuchliroq bo'ladi. – O'quvchining biror bilimni o'rganishi, uni o'zi uchun kashf qilishi bilan barobardir. Shu sababli texnologik ta'limda tayyor bilimlar berilmaydi, balki ular dars paytida ishlab chiqiladi. – Ta'lim natijalari faqat biror ma'lumotni eslash, aytib berishdan iborat bo'lib qolmaydi, balki biror amaliy ishni bajarish ko'nikmasi darajasiga yetkaziladi.

3. Ta'lim maqsadlarining ta'lim natijalariga mosligi. – Ta'lim maqsadlari asosida ta'lim natijalari ishlab chiqiladi. Keyin ta'lim natijalari qayta ishlanadi va uning asosida qaytadan ta'lim maqsadlari tuzatiladi. – Tarbiyaviy maqsadlar o'quv maqsadlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Tarbiyaviy maqsadlar asosida o'quv maqsadlariga ham tuzatishlar kiritish mumkin. – Tarbiyaviy natija bu – o'quvchining darsda orttirgan ahloqiy tarbiyasi va madaniyati emas (o'quvchining dars nihoyasida ma'naviy saviyasi oshishi, ahloqining shakllanishi kabi), balki fiziologik, psixologik va kasbiy tarbiyadir (ya'ni, diqqatni 20 minut davomida chalgimasdan o'rganilayotgan ob'ekda ushlab tura olish, berilgan muammo bo'yicha texnik fikrlay olish, boshqa o'quvchilarga o'z fikrini o'tkaza olish va h.k.).

4. Ta'lim natijalarining ishonchliligi. – Ta'lim natijalari aniq bo'lishi, bitta mazmunni ifodalashi zarur. – Mahsulot sifati korxona laboratoriyasida qanday o'lchansa, ta'lim natijasi ham shu kabi o'lchanuvchan xususiyatga ega bo'lishi zarur (testlar, savollar va sh.k. bilan). – Pedagogik texnologiya takrorlanganda doim bir xil

natijalarga erishilishi zarur. – Dars beruvchi kim bo'lishidan qat'iy nazar (professor yoki katta o'qituvchi) etalon natijalar ta'minlanishi zarur.

5. Darsning tizimli, bosqichma-bosqich rejalashtirilgan dastur asosida o'tilishi. – Har bir mavzu va uning bosqichlari vaqt bo'yicha va mantiqan rejalashtiriladi. – Ta'lim natijalariga bosqichma-bosqich erishiladi. – Ta'lim bosqichlari o'zaro bo'liqlikda bo'ladi.

6. Asosiy e'tiborning o'quvchiga qaratilishi. – Pedagogik texnologiyada o'qituvchining vazifasi ma'lumot berish emas, balki o'quvchining dars materialini o'rganishini tashkil qilishdir. – Darsning asosiy qismi o'qituvchining monologi shaklida emas, balki o'quvchilarning faoliyati shaklida tashkil qilinadi. – O'quvchi o'z o'rto'ldan, o'qituvchidan o'rgangandagiga qaraganda erkinroq va yaxshiroq o'rganadi. – O'rgatgan odam ikki karra ko'proq o'rganadi. Shu sababli o'quvchilar birbiriga o'rgatib o'rganishi tashkil qilinadi. – O'quvchi nafaqat ma'lumotni bilishi, balki uni amalda qo'llay olishi, boshqaga o'rgata olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. – Ijrochi mijozning xohishiga qarab ish ko'radi. Shu sababli o'qituvchi darsni tashkil qilishda o'quvchining qiziqishlarini e'tiborga oladi.

7. Pedagogik texnologiyalarning pedagogik jamoada ishlab chiqilishi. – Pedagogik texnologiyalar pedagogik guruhlar tomonidan ishlab chiqiladi. – Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish – murakkab va qiyin jarayon bo'lib, bunda xuddi yangi kompyuter dasturini yaratish kabi dars mavzusini o'qitishning yangi metodikasini ishlab chiqiladi. – Pedagogik texnologiya ishlab chiqilayotganda shu narsa e'tiborga olinishi kerakki, har qanday pedagog har qanday sharoitda bu texnologiyani qo'llay olishi zarur.

8. E'tiborning nafaqat natijalarga, balki ta'lim jarayonining o'ziga ham qaratilishi. – Teatr odamlarni qanday o'ziga jalb qilsa, dars ham o'quvchilarda shunday qiziqish va intilish paydo qilishi kerak. – Natijadan ko'ra jarayonning o'zi qiziq bo'lishi kerak, ana shunda o'quvchi darsga intiladi.

9. Ta'lim natijalarining tizimli tartibda baholanishi. – Texnika sohasida reja, loyiha, me'yoriy ko'rsatkichlar, jadvallar, standartlar bo'lgani singari, texnologik ta'limning ham o'ziga xos maxsus shakllari va jadvallari, standart qo'llanmalari mavjud. – Bilim, ko'nikma va malakalarni baholashda ma'lumotni bilish, reproduktiv, produktiv, ijodiy bosqichlari hisobga olinadi. – Ortirilgan bilim va tarbiya maxsus pedagogik taksonomiyalar asosida sinflanadi. 10. Darsga tayyorlanish ko'p mehnatni talab qilishi. – Har bir dars materiali uchun o'ziga xos pedagogik texnologiya ishlab chiqiladi. – Pedagogik texnologiya ishlab chiqish ancha murakkab jarayon. Pedagogik texnologiyalarni akademik guruhning o'ziga xosligiga, avvalgi va keyin o'qitiladigan materiallarga qarab tuzish zarur. Shu sababli pedagogik texnologiya tizimini tayyorlash ishni birmuncha yengillashtiradi, barcha mavzularga tezish ishlab chiqish unchalik qiyinmas.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi haqida ma'lumot bering.
2. Pedagogik texnologiya tushunchasiga ta'rif bering.
3. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish bosqichlarini sanab o'ting.

2-MAVZU: INTERFAOL TA'LIM, UNING ASOSIY SHAKLLARI VA ISHTIROKCHILARI (2 SOAT)

Reja:

1. Interfaol ta'lim qonuniyatlari, asosiy kategoriyalari, ustuvor tamoyillari.
2. Pedagogik texnologiya turlari.

1. **Interfaol metod** – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

2. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari

3. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

4. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

5. Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

6. Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

7. Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

8. Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

9. Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, no'an'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish,

foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

10. Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi.

11. Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

№	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi
2	Dars maqsadi	Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish.
3	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
4	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	O'quvchilar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
6	O'quvchilarning vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil

		yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
8	Darsning modul va algoritmlari	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
9	O'quvchilardan talab qilinadigan faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol. Muloqot shakllari: o'qituvchi-guruh; o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi;	O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol. Hamkorlik, hamijodkorlik shakllari: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; o'quvchi-o'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi.
10	Bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari	Muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa va boshqalar.	Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil va boshqalar.
11	Mashg'ulot shakllari	Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti, davra suhbat, bahs, munozara, konsultastiya va boshqalar.	Ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbat, amaliy ishlar va boshqalar.
12	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishlari.	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish.

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu

tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Shu mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin. Shu maqsadda quyidagi jadvalni keltiramiz:

An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar

Bu jadvalda hajm oshib ketmasligi uchun fikr juda qisqa bayon qilindi.

Jadvalda keltirilgan farqlar shu ikki mashg'ulot turining bir-biriga nisbatan afzal va kamchilik tomonlarini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Interfaol mashg'ulotning ushbu jadvalda ko'rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda hap bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Shularga o'xshash farqlarning ijtimoiy hayotdagi ta'siri to'g'risida bir necha asr muqaddam A.Navoiy o'zining mashhur «Mahbub ul-qulub» asari muqaddimasida shunday yozgan edi: «Umid ulkim, o'qig'uvchilar diqqat va e'tibor ko'zi bila nazar solg'aylar va har qaysisi o'z fahmu idroklariga ko'ra bahra olg'aylar...». Bunda shu asarni har kim turlicha, ya'ni o'z fahmi idroki darajasidagina tushunishi, o'zlashtirishi, foyda ola bilishi va amalda qo'llay bilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bundan biz interfaol ta'lim usullarining an'anaviy usullardan asosiy farqlari to'g'risida yuqorida aytgan xulosalarimizni yanada qisqa qilib, o'quvchilarning fahmu idroklarini o'stirishdan iborat, deb ifodalashimiz mumkin.

Bunda ta'kidlash lozimki, interfaol ta'lim usullari O'zbekistonda qadim zamonlardan beri ta'lim-tarbiya jarayonida muallim bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalar o'rtasidagi muloqotlarda muhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo'llab kelingan.

Bu usullar talabalarning nutq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste'dod, zakovatlarini o'stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan, komil insonlar bo'lib etishishlariga xizmat qilgan.

Hozir interfaol mashg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi — har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchilardan interfaol mashg'ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;
- o'qituvchilarga interfaol usullarni o'rgatishni tashkil qilish;
- o'quv xonasida interfaol mashg'ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- ma'ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo'lishini ta'minlash;
- sanitariya-gigiena me'yorlari buzilishining oldini olish;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;
- davomatni va intizomni saqlash;
- nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

- DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;
- interfaol mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;
- interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;
- mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;
- zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo'llash;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;
- interfaol mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

O'qituvchiga tegishli omillar:

- mavzuni sayoz bilishi;
- nutqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me'yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so'zlar, atamalarning ma'nosini tushuntirmasdan qo'llashi, shevaga xos so'zlarni ko'p qo'llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo'l qo'yishi va tushunarsiz yozishi;
- o'zini tutishi va pedagogik xulqidagi nuqsonlar;
- kiyinishi va tashqi ko'rinishiga e'tiborsizligi;

- ta'lim vositalaridan unumli va to'g'ri foydalana olmasligi;
- kuzatuvchanlik, vaqtning o'tishini his qilish, uni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasi etishmasligi;
- tinglash ko'nikmasi yetishmasligi;
- o'quvchiga xayrixohlik, samimiylilik, u bilan hamkorlikda ish olib borish ko'nikmasi yetishmasligi;
- mantiqiy bog'liqlik va izchillikka rioya qilmaslik va boshqalar.

o'quvchilarga tegishli omillar:

- davomat pastligi, mashg'ulotga kechikib kelishi;
- zarur tayyorgarliksiz kelishi;
- ilmiy atamalarni bilmasligi;
- diqqatni jamlay olmasligi;
- eshitish qobiliyatidagi va tinglash ko'nikmasidagi kamchiliklar;
- qiziqishning pastligi, fikr yuritishning sustligi;
- dars mavzusi bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi;
- manfaatdorlikning kamligi va boshqalar.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalarga tegishli omillar:

- ta'lim vositalarining etishmasligi, ta'mirlab yoki yaroqsiz holda bo'lishi, sifatli va zamonaviy vositalarning kamligi;
- mashg'ulot mavzusini o'zlashtirish uchun maqsadga muvofiq vositalar turlarini va sonini to'g'ri tanlamaslik;
- vositalarni mashg'ulot boshlanmasidan oldin ishga tayyorlab qo'ymaslik;
- vositalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, interfaol mashg'ulotlarni yuqorida qisqacha bayon qilingan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish va olib borish bu mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida shu mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:

- Moderator – ta'lim mazmunini yaratish, modullarini ishlab chiqish.
- Trener–o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.
- Tyutor–masofadan o'qitish dasturlarini yaratish va bajarilishini ta'minlash.
- Fasilitator–darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.
- Mentor–ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).
- Kouch–ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishlari uchun yordam ko'rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg'ulotni, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo'yicha tayyorgarlik ko'rish).
- Konsultant–maslahat berish, tushuntirish, qo'shimcha ma'lumot berish.

- Lektor–nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiruvchi.
- Ekspert – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

10. Innovator–yangiliklarni ta'lim mazmuni va mashg'ulotlar jarayoniga joriy q

11. Kommunikator–o'zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.

12. O'qituvchi–mashg'ulot mavzusi bo'yicha ko'zda tutilgan mazmunni tushuntirish, o'quv jarayoniga rahbarlik.

13. Menejer–tashkiliy–pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.

14. Spekter–kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

15. Assistent–mashg'ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo'llashga tayyorlash, mashg'ulot ishtirokchilariga yordam ko'rsatib turish.

16. Sekretar–zarur ma'lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o'rnatilgan tartibda saqlash.

17. Texnolog–pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etib boradi.

18. Metodist-ta'lim-tarbiya metodlari bo'yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

19. Koordinator-loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

20. O'quvchilar – ta'lim oluvchilar.

Interfaol metodlarni mashg'ulot maqsadiga muvofiq tanlash.

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur.

Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi.

To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bu metodlardan amalda foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

O'quvchi o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi;

O'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;

Bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

2. Pedagogik texnologiya turlari

Pedagogik texnologiyalar uzluksiz ta'lim turlari, ta'lim sohalari hamda ayrim belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi.

Uzluksiz ta'lim turlari bo'yicha maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, tayanch ta'lim, maktabdan tashqari-qo'shimcha ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi pedagogik texnologiyalariga bo'linadi. Shu bilan birga, ta'lim sohalari bo'yicha ona tili, xorijiy tillar, adabiyot, ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar, san'at, sport, texnika, texnologiya, amaliy fanlar, kasb-hunarlar, maxsus ta'lim pedagogik texnologiyalari mavjud.

Hozirda mavjud bo'lgan pedagogik texnologiyalarni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Bu belgilar haqida gapirishdan oldin shuni eslatib o'tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo'lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoildan foydalanmaydi. Ya'ni quyida keltiriladigan turlarigagina xos bo'lgan monotexnologiyalar aslida mavjud emas. Lekin har bir pedagogik texnologiyada asosiy e'tibor ta'lim jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi.

Bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha pedagogik texnologiyalar turlari:

- Klassik ma'ruza;
- Texnika vositalari yordamida o'qitish;
- Maslahatchilik tizimi;
- Darslik bo'yicha o'qitish;
- Kichik guruhlar tizimi;
- Kompyuter yordamida o'qitish
- Repetitorlik tizimi;
- Dasturlashtiriladigan boshqaruv.

Ta'lim oluvchiga yondashuv turi bo'yicha pedagogik texnologiyalar quyidagicha nomlanadi:

- Avtoritar;
- Didaktik yo'naltirilgan;
- Ijtimoiy yo'naltirilgan;
- Antropologik yo'naltirilgan;
- Pedagogik yo'naltirilgan;
- Shaxsga yo'naltirilgan;
- Insonparvarlikka va shaxsga yo'naltirilgan;
- Hamkorlik texnologiyalariga yo'naltirilgan;


- Erkin tarbiyaga yo`naltirilgan;
- Ezoterik ta`lim va tarbiyaga yo`naltirilgan.

Qo`laniladigan asosiy metod bo`yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

- Dogmatik, reproduktiv metod ;
- Tushuntirish, ko`rgazmali;
- Rivojlantiruvchi ta`lim;
- Muammoli, izlanishli;
- Ijodiy metod;
- Dasturlashtirilgan ta`lim metodi ;
- Dialogli metod;
- O`yin metodi ;
- O`z-o`zini rivojlantiruvchi ta`lim metodi;
- Axborotli (kompyuterli) ta`lim metodi

Tashkiliy shakllariga ko`ra pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga bo`linadi:

- Hozirgi an`anaviy ta`lim;
- Shaxsga yo`naltirilgan pedagogik jarayon asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- O`quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- O`quv jarayonini boshqarish va tashkil qilish samaradorligi asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- Materialni didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- Xususiy fanlar pedagogik texnologiyalari;
- Alternativ texnologiyalar;
- Tabiatga moslashtirilgan texnologiyalar;
- Rivojlantiruvchi ta`lim texnologiyalari;
- Mualliflik maktablari pedagogik texnologiyalari;
- Texnologiyalarni loyihalash va o`zlashtirish texnologiyalari.



Bundan tashqari shaxsning xususiyat va sifatleri tarkibiga yo`naltirilganlik bo`yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

➤ Fanlar bo`yicha bilim, ko`nikmalarni shakllantirishga yo`naltirilgan –axborot texnologiyalar;

➤ Aqliy faoliyat usullarini shakllantirishga yo`naltirilgan –operatsion texnologiyalari;

➤ Estetik va axloqiy munosabatlar sohasini shakllantirishga yo`naltirilgan emotsional-badiiy va emotsional axloqiy texnologiyalar;

➤ Shaxsning o`z-o`zini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishga yo`naltirilgan o`z-o`zini rivojlantirish texnologiyalari;

➤ Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo`naltirilgan –evristik texnologiyalar;

➤ Amaliy faoliyat sohasini rivojlantirishga yo`naltirilgan amaliy texnologiyalar.

Pedagogik texnologiyalarni quyidagi belgilariga ko`ra tasnif qilinadi:

➤ Qo`llash darajasiga ko`ra;

➤ Falsafiy asosiga ko`ra;

➤ Asosiy rivojlantiruvchi omiliga bo`yicha;

➤ O`zlashtirish konsepsiyasi bo`yicha;

➤ Shaxsiy belgi-sifatlariga ko`ra yo`nalganligi bo`yicha;

➤ Mazmun xususiyatlari bo`yicha ;

➤ Boshqaruv turiga bo`yicha;

➤ Bolaga yondashuv bo`yicha;

➤ Ko`p qo`llanilgan metodlari bo`yicha;

➤ Ta'lim oluvchilar toifalari bo`yicha.

3-MAVZU: MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. (2 SOAT)

Reja:

1. Muammoli ta'limning an'anaviy va noan'anaviy modellari.

2. Zamonaviy ta'lim texnologiyasi.

3. Kichik guruhlarda ishlash.

Loyiha ta'lim texnologiyalarining didaktik mohiyati. Loyiha –aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli. Loyiha dastur, model, texnologik xarita va b. ko'rinishda namoyon bo'ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g'oya tashkil etadi. Loyihalash – boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.

Loyihalash “g'oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish” tizimiga asoslanadi. Loyihalash turli vositalar, ya'ni moddiy buyum, qurollar, m: komp'yuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qog'ozi, chizg'ich, qalam, marker, nusxa ko'chirish apparati(printer) va b. yordamida amalga oshiriladi.

Loyihani yaratish uchun pedagog:

- loyihani yaratish;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- maqsadni aniq belgilash;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- o'quv materialini mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- talaba bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

Ta'lim jarayonini loyihalash – alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari:

1) talim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi;

2) ta'limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;

3) loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

4) loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va talaba o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq.

O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir- biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishning asosiy bosqichi – o'quv jarayonini loyihalashtirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. Darsning maqsadi va natijasini belgilash.
2. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
3. Ta'lim resurslarini tanlash.
4. O'qitish va o'qish strategiyasini belgilash.
5. Dars turini tanlash.
6. Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish.

Dars maqsadi va natijasini belgilash – o'qitish va o'qish jarayonlarining eng muhim omili bo'lib, ta'lim jarayonida aynan ular etakchi o'rin tutadi. Darsning maqsad va natijasi DTS talablaridan kelib chiqib aniqlanadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, darsning maqsadi o'qituvchi tomonidan talabaga qanday bilim, ko'nikma va malakalarning berilishi nuqtai nazaridan emas, balki talabalar tomonidan darsda qanday bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi muhimligidan kelib chiqib belgilanishi zarur. O'z mohiyatiga ko'ra darsning maqsadi o'qituvchi va talabalarning umumiy natijalarga qarab

harakatlanishlarini belgilaydi. Shu sababli darsning maqsadi tashxisli ifodalanishi lozim. Ya'ni dars maqsadi aniq bo'lishi kerak.

Dars maqsadining aniq bo'lishiga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

1) darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lim maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi;

2) o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

Shunga ko'ra aytish mumkinki, ta'lim maqsadlari talabalarning harakatlarida ifodalanadigan ta'lim natijalari belgilanadi.

Ta'lim texnologiyasining keyingi eng muhim komponenti – kutilayotgan natijadir. Binobarin, u o'qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, o'qitish va o'qish jarayoni, natija qo'yilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish – darsning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o'quv materialning mazmuni asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga ko'ra baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Ta'lim resurslarini tanlash – mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi, talaba va darsni tashkil etish uchun ta'lim vositalarining o'rinli tanlanilishini, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi. **O'qituvchi, talaba va darsni tashkil etish uchun ta'lim vositalari sirasidan quyidagilar o'rin oladi:**

O'qitish va o'qish strategiyasi – belgilangan o'quv materiallarini talabalar ongiga etkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lim metodi, shakllarining amalda qo'llanilishini ko'zda tutadi.

Darsning turini tanlash – o'qituvchining mahoratiga ko'ra darsning didaktik maqsadi, o'quv materialining mazmuni, dars uchun ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanilishini ifodalaydi.

Darsning texnologik xaritasi – dars ishlanmasining asosiy o'zagini tashkil etadi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Darsning texnologik xaritasi xususida ma'ruzaning keyingio'rinlarida alohida to'xtalib o'tiladi.

Ta'lim jarayonni loyihalash: loyiha – mazmun – faoliyat uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Ta'lim jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:

1-bosqich: loyihani yaratish

2-bosqich: talabalar faoliyatini tashxislash.

3-bosqich: pedagogik jarayonni tashkil etish.

4-bosqich: pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash.

5-bosqich: talabalar faoliyatini nazorat qilish.

Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari

Ta'lim jarayonini loyihalashda bajariladigan asosiy vazifalar quyidagilardir:

1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;

2) natijalarni oldindin ko'ra bilish;

3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish.

Ta'lim jarayonni loyihalashda vazifalarning belgilanishi

Dars ishlanmasi – bu ta'limiy mazmunga ega loyiha, shuningdek, o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi. Uni tuzishda o'qituvchining

dars jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmuni boyitish, ta'lim samaradorligini oshirish maqsadi ko'zlanadi.

Dars ishlanmasini yildan-yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi metodlarni qo'llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilab turilishi lozim. Binobarin, ta'lim jarayoniga yangi DTS, o'quv dasturlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarning joriy etilishi, o'qituvchi tomonidan yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalarining qo'llanishi bilan dars ishlanmalariga qo'yilgan talablar ham o'zgarib boradi. Dars loyihasi (ishlanmasi)ni uchun tayyor, standart qolip mavjud emas. Chunki dars "jonli" tashkil etilishi zarur. Darsning bu xususiyatiga ko'ra uni hech qanday qolipga solib bo'lmaydi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonini loyihalash, odatda, texnologik pasport va texnologik xaritalar vositasida amalga oshiriladi.

Texnologik pasport (pedagogikada) – ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat.

OTMdagi o'quv mashg'ulotining texnologik pasporti

1. Ma'ruzaga ajratilgan vaqt
2. O'quv mashg'ulotining shakli va turi
3. O'quv mashg'ulotining tuzilishi
4. O'quv mashg'ulotning maqsadi:
5. Pedagogik vazifalar:
6. Ta'lim metodlari
7. Ta'limni tashkil etish shakli
8. Didaktik vositalar
9. Ta'limni tashkil etish sharoiti
10. Nazorat

Texnologik xarita (pedagogikada) – pedagogik (ta'lim va tarbiya) jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat.

OTMdagi o'quv mashg'ulotlarining texnologik xaritasi

1-bosqich. Boshlang'ich qism – o'quv mashg'ulotining tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa)

2-bosqich. Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa)

3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)

Ta'lim jarayonni loyihalashda odatda modellashtirishdan ham foydalaniladi.

Model – real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, ichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi.

Modellashtirish hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish.

O'quv jarayonida quyidagi turdagi modellar qo'llaniladi:

1. O'quv modellari (ta'lim jarayonida qo'llaniladi; ko'rsatmali qurollar, ko'rgazmali vositalar, trenajyorlar, ta'limiy dasturlar).

2. Tajriba modellari (ilmiy, amaliy tajribalarni olib borishda qo'llaniladi; loyihalashtirilayotgan ob'ektning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi).

3. Ilmiy-texnik modellar (jarayon va hodisalarni tadqiq etishda qo'llaniladi; qurilma, moslama, asbob, jihoz va mexanizmlar).

4. O'yin modellari (turli vaziyatlarda ob'ekt tomonidan turli harakatlarni bajarish orqali ko'nikma, malakalarni hosil qilish maqsadida qo'llaniladi; komp'yuter, sport, iqtisodiy, harbiy, ishchanlik o'yinlari va b.).

5. Imitatsion modellar (real voqelikni u yoki bu darajada shunchaki aniq aks ettirish uchun emas, balki aynan unga o'xshatish maqsadida qo'llaniladi; amaliy harakatlarni bajarishga xizmat qiluvchi turli trenajyorlar, mexanizmlar).

Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalar tomonidan ham turli o'quv loyihalarning tayyorlanishiga e'tibor qaratilmoqda.

Xo'sh, o'quv loyihasining o'zi nima? O'quv loyihalarini tayyorlash jarayoni qanday kechadi?

O'quv loyihasi – 1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va echish, natija (echim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli;

2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni echishga qaratilgan o'quv harakati vositasi;

3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita hisoblanadi.

Loyiha ta'limi texnologiyalaridan o'quv amaliyotida foydalanishda "o'quv loyihaviy faoliyat" tushunchasi ham qo'llaniladi. O'quv loyihaviy faoliyat – o'quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo'lida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi.

Muammoli ta'lim texnologiyalarining o'qitishdagi ahamiyati.

Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim muammoli ta'lim deb ataladi.

Muammoli ta'limning ilk g'oyalari amerikalik psixolog va pedagog J.D'yui (1859-1952 yy.) tomonidan asoslangan. U 1894 yilda Chikagoda o'qitish o'quv rejasi bo'yicha emas, balki o'yin va mehnat asosida olib boriladigan tajriba maktabini tashkil etgan.

J.D'yui muammoli ta'lim asosi sifatida quyidagi yo'nalishlarni belgilagan:

- 1) ijtimoiy;
- 2) konstruktiv;
- 3) badiiy ifodaviy;
- 4) ilmiy-tadqiqot.

Muallif ko'rsatilgan yo'nalishlarda ta'limni tashkil etish uchun quyidagi vositalardan foydalangan:

- 1) so'z;
- 2) san'at asarlari;
- 3) texnik qurilmalar;
- 4) o'yinlar;
- 5) mehnat.

O'tgan asrning 60-yillarida esa muammoli ta'lim L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan. S.L.Rubinshteynning "Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi" degan g'oyasi muammoli ta'limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.

Muammoli ta'lim turlari (M.N.Skatkin):

1. Bilimlarni muammoli bayon qilish (muammoli ma'ruza).
2. Muammoli topshiriqlarni hal qilish (muammoli amaliy mashg'ulot).
3. Kichik ilmiy tadqiqotlarni olib borish (muammoli tajriba).

Muammoli ta'limning asosini muammo (yun. "to'siq", "qiyinchilik") yoki muammoli vaziyat tashkil etib, muammoli TT ularning echimini topishga xizmat qiladi. Ko'p holatlarda muammo va muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi.

Muammoning tarkibiy qismlari:

- 1) ma'lum bilimlar;
- 2) noma'lum bilimlar;
- 3) mavjud tajriba.

Pedagogik muammo – hal qilinishi zarur, biroq, hali echish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala.

Muammoni qo'yish quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. Muammoni izlash.
2. Muammoni qo'yish.
3. Muammoni hal qilish.

Ta'lim jarayonida muammoni qo'yish bir necha sathda kechadi. Ular

Muammoni qo'yish sathlari

1-sath O'qituvchi muammoni qo'yadi va talabalarni uni hal qilishga yo'naltiradi.

2-sath O'qituvchi muammoli vaziyatni bayon qiladi va talabalarning o'zlari mustaqil ravishda muammoni shakllantiradi.

3-sath O'qituvchi muammoni qo'rsatib bermaydi, balki unga talabalarni ro'para qiladi. Talabalar muammoni anglagan holda uni o'zlari shakllantirib, muammoni echish usullarini tahlil qiladi.

Muammoli vaziyat – talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani echish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish bosqichlari:

1. Muammoli vaziyatni yaratish.
2. Vaziyatni tahlil qilish asosida muammoni qo'yish.
3. Farazlarni ilgari surish.
4. Yechimni tekshirish.

Pedagogikada muammoli vaziyat metodi ham qo'llaniladi.

Muammoli vaziyat metodi – talabalarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'minlash asosida ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l. Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning echimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat.

Muammoli ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o'qituvchilar ularni to'g'ri tanlashga e'tibor qaratishlari zarur.

Quyidagilar muammoli ta'limning asosiy metodlari sanaladi:

Metodlar

1. Muammoli ta'lim metodlari
2. Ijodiy metod
3. Qisman ijodiy metod
4. Muammoli bayon metodi
5. Muammoli vaziyatlarni yaratish metodi
6. Tadqiqot metodi
7. Evristik metod.

Demak, zamonaviy sharoitda ta'lim amaliyotida loyiha hamda muammoli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'qitish jarayonini samarali kechishini ta'minlash bilan birga talabalarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

4-MAVZU: TINGLOVCHINING TURLI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BO'YICHA DARS ISHLANMALARI TAQDIMOTI (2 SOAT)

Reja:

Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash, pedagogik baholash va o'z-o'zini baholash kartasi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya amaliyotida pedagogik texnologiyalar uch daraja- da qo'llaniladi:

1. Umumpedagogik daraja. Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtar- biyaviy) darajada pedagogik texnologiyaning umumiy qonuniyatlari, konseptual asoslari, o'qituvchi va o'quvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqiladi.

2. Xususiy metodik darajada muayyan bir o'quv fani, kursni o'qitish jarayonining maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida ta'lim mazmunini o'quvchilar ongiga singdirishda foydalaniladigan o'qitish metodlari, vositalari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. Lokal (modul) darajada ta'lim-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismida mazkur qismning xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi.

Pedagogik texnologiyalarning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi.

Tarbiya fanini o'qitish jarayonida quyidagi umumpedagogik texno- logiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:



Quyida ularning mazmun-mohiyatini yoritib beramiz.

O'quvchining faolligi, maqsadli yo'naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta'sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. O'quvchilarning faolligini ta'minlovchi o'qitish texnologiyalaridan biri – ishchanlik o'yini hisoblanadi. O'yin faoliyatiga qiziqish, o'quvchilarning o'z-o'zini ifoda etish, ro'yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta'minlanadi.

O'yin texnologiyalari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: motivatsion, maqsadga yo'naltirilganlik, mazmunli-tashkiliy, qadriyatga yo'nalganlik, baholashga doir (1-jadvalga qarang).

O'yin texnologiyalarining tarkibiy qismlari

O'yinli texnologiyaning komponentlari	O'yinning tuzilishiga doir elementlar
Motivatsion	O'yinni tashkil etish
Maqsadga yo'nalganlik	O'yinning vazifalari
Mazmunli-tashkiliy	O'yin qoidalari va harakatlar
Qadriyatga yo'nalganlik	O'yindagi turli vaziyatlar
Baholashga doir	O'yin natijalari

Pedagogik o'yinning asosiy xususiyati – o'quv-bilish faoliyatiga yo'naltirilgan o'qitish maqsadi va unga mos keluvchi pedagogik natijaning aniq qo'yilishidir.

Pedagogik o'yinning vazifalari:

- didaktik: bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotda qo'llash; yangi ko'nikma, malakalarni shakllantirish, dunyoqarashni kengaytirish;
- tarbiyalovchi: mustaqillik, iroda, etik va estetik qarashlar, hamkorlik, jamoada tarbiyalash;
- rivojlantiruvchi: diqqat, xotira, nutq, fikrlash, ijodiy qobiliyatlar, taqqoslash, solishtirish, o'quv motivatsiyasini rivojlantirish;
- ijtimoiylashtirish: qadriyat va an'analarni o'zlashtirish, mavjud shart-sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashtirish.

Pedagogik o'yinlar muhit bilan bog'liqlikda (predmetli, predmetsiz, ochiq havoda o'ynaladigan, kompyuter), fan sohasi (musiqiy, teatrlashtirilgan, badiiy, boshqaruvga

doir, savdo-sotiq, iqtisodiy, jismoniy, sport, turizmga doir) va maqsadiga (didaktik, psixologik, ishbilarmonlik)ga farqlanadi.

Ishchanlik o'yini o'zida mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyati- ning predmeti va ijtimoiy mazmunini tiklash shaklini mujassamlashtiradi, faoliyat yaxlitligini belgilovchi shunday munosabatlar tizimini model- lashtiradi.

Belgili vositalar (til, nutq, grafiklar, jadvallar, hujjatlar) yordamida, ishbilarmonlik o'yinida asosiy muhim belgilariga ko'ra haqiqiy vaziyatga o'xshash kasbiy vaziyat vujudga keltiriladi. Shu bilan birga ishbilarmonlik o'yinida, qisqa vaqt ichida faqat turdosh umumiy vaziyatlar qayta tiklanadi.

Ishchanlik o'yini kelajakdagi kasbiy faoliyatning predmetli jihatini (shart- li amaliyot) o'quvchilarning boshqa rolli holatdagi vakillar bilan o'zaro mulo- qotda bo'luvchi ijtimoiy jihatini vujudga keltiradi. Shunday qilib, ishchanlik o'yinida jamoaviy faoliyatning yaxlit shakli – ishlab chiqarish, kasbiy faoliyat sharoiti modeli yaxlit obyektga amalga oshiriladi.

Ishchanlik o'yinida o'quvchi o'zida o'quv va kasbiy elementlarni uyg'unlashtirgan o'xshash faoliyatni bajaradi. Bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi mavhum da- rajada emas, balki kasbiy mehnat konteks- tida amalga oshadi. Kontekstli o'qitishda bilimlar kelajak uchun bekorga emas, balki o'quvchining real o'yin jarayonidagi haraka- tini ta'minlaydi. Bir vaqtning o'zida, o'quv- chi kasbiy bilimlar bilan bir qatorda maxsus xislatga – odamlar bilan muloqotda bo'lish va boshqarish, jamoaviy qarorlar qabul qilish malakalari, rahbarlik qilish va bo'ysunish ko'nikma- lariga ega bo'ladi. Ya'ni ishchanlik o'yini shaxsiy sifatlarni tarbiyalaydi, ijtimoiylashuv jarayoni- ni jadallashtiradi. Ammo bu «jiddiy» kasbiy faoliyat o'yin shaklida ro'yobga chiqarilgan- ligi sababli, o'quvchi aqliy va hissiy jihatdan erkinlashadi, ijodiy tashabbusini namoyon etadi.

Ishlab chiqarish dinamikasi, mutaxassislarning harakatlari va munosabat- larini modellashtirib, o'xshatib, ishbilarmonlik o'yini, bilimlarni dolzarblash- tirish, qo'llash va mustahkamlash vositasi va amaliy fikrlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu holat, o'yinning ma'lum berilgan aniq vaziyatida yoki ishlab chiqarish vaziyatida ishtirokchilarning o'zaro munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Ishchanlik o'yini o'xshatma modelda o'yinli o'quv masalala- rini qo'yish va yechish bo'yicha qo'shma faoliyat kabi ro'yobga chiqariladi. Qo'shma faoliyat qoidalar va me'yorlari, o'xshatish tili va aloqalar oldindan qabul qilinadi yoki o'yin jarayonida ishlab chiqiladi. Ishchanlik o'yini munozarali muloqot tarzida o'tkaziladi, u qo'shrejali faoliyat hisoblana di, chunki unda ikkita maqsadga erishiladi: o'yinli va pedagogik. Pedagogik faoliyat ustuvor bo'lsa ham, o'yinni poymol etmasligi kerak.

O'yin jarayonida quyidagilar o'zlashtiriladi:

- 1) kasbiy harakatlar me'yorlari;
- 2) ijtimoiy harakatlar me'yorlari – ishlab chiqarish jamoasidagi munosa- batlar.

Bunda o'yinning har bir ishtirokchisi faol holatda, sheriklari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, o'z qarashlarini sheriklariniki bilan taqqoslaydi va shuning natijasida jamoa bilan munosabati orqali o'zini o'zi o'rganadi.

Imitatsion o'yinlar – bo'lim, sex, korxona, tashkilotning

imitatsiya qilinadi. Imitatsion o'yinlar ssenariysi, hodisa syujetidan tashqari, imitatsiya qilinadigan jarayon va obyektlar tarkibi va ahamiyati haqidagi tafsilotlarni o'z ichiga oladi.

Operatsion o'yinlar – tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitini modellashtiradi- lar. Ular ma'lum bir o'ziga xos operatsiyalarni, masalalarni yechish, ma'lum bir usulni o'zlashtirishga yordam beradi.

Rolli o'yinlar – ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holat- lari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi.

Ishchanlik teatri – qandaydir bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamning xatti-harakati ishlab chiqiladi. Vaziyatning tafsiloti, ishtirok etuvchilarning vazifa va majburiyatlari, maqsad- lari ko'rsatilgan ssenariy tuziladi. Bu yerda ma'lum shaxsning haqiqiy qiyofasiga kirib borish, uning

xatti-harakatlarini anglash, vaziyatni baholash va to'g'ri xatti-harakatni tanlash muhim hisoblanadi.

Psixodrama va sotsiodrama – bu rolli o'yin ishbilarmonlik teatriga o'xsha- gan bo'lib, faqat bu yerda sotsial-psixologik masalalar yechiladi. Bunday

masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his qila olish, boshqa kishining ruhiy holatini to'g'ri baholash va uni o'zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi.

Ishchanlik o'yinlari uch bosqichda amalga oshiriladi:

O'yinni tayyorlash bosqichi. Bu bosqich, o'z navbatida, ikki qismdan iborat: o'yinni ishlab chiqish, o'yinga kirishish. O'yinni ishlab chiqish – o'yin ssenariysini ishlab chiqish, yo'riqnomalar tuzish va moddiy ta'minotni ta'min- lashni o'z ichiga oladi.

Ishchanlik o'yini ssenariysi quyidagilardan iborat: faoliyat maqsadi; o'yin vazifasi, o'rganiladigan muammo tafsiloti; vaziyatning tafsiloti va ishtirok etuvchilarning tasnifi. O'yinga kirishish quyidagilarni anglatadi:

- guruhni shakllantirish;
- mashg'ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;
- muammo va vaziyatni vujudga keltirish;
- o'yin reglamentini o'rnatish;
- materiallar, yo'riqnomalar, qoidalar va ko'rsatmalar to'plamini tarqatish;
- maslahatlar berish.

Rollar qur'a tashlash yo'li bilan taqsimlanadi. Reglamentga, muloqot etikasiga, faollikni namoyish etishga va o'yinning oxirigacha ishtirok etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

II. O'yinni o'tkazish bosqichi. Bu bosqich – guruh bilan vaziyatni barpo etish ishlari va guruhlararo munozaradan iborat. Ishtirokchilarning roliy holatlari, ishbilarmonlar o'yinining shakliga bog'liq va quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) guruhdagi ish mazmuniga ko'ra – g'oyalarni yaratuvchi va uzatuvchi ishlab chiquvchi, taqlidchi, tashxischi, zukko, xulosa qiluvchi;

2) ishtirokchilarning tashkiliy vaziyatlariga ko'ra – tashkilotchi, muvofiqlashtiruvchi, yig'uvchi, nazoratchi, murabbiy, boshqaruvchi;

3) yangilikka nisbatan munosabatiga ko'ra – tashabbuskor, ehtiyotkor tanqidchi, yangilikka qarshilik ko'rsatuvchi (konservator);

4) uslubshunoslik holatiga ko'ra – uslubshunos tanqidchi, uslubchi, muammochi, dasturchi;

5) ijtimoiy-psixologik holatiga ko'ra – yetakchi, hurmat qilinuvchi, qabul qilinuvchi, mustaqil, qabul qilinadigan, rad etiluvchi.

O'yin jarayonida hech kim o'yinga ta'sir qilish huquqiga ega bo'lmaydi. Faqat boshlovchigina, zaruriyat tug'ilganida, o'yin ishtirokchilari harakatlariga tuzatishlar kiritishi mumkin.

III. O'yin natijalarini tahlil etish bosqichi quyi- dagilarni o'z ichiga oladi: taqrizchilarning chiqishlari, fikrlar almashinuvi, ishtirokchilarning o'z qarorlari va xulosalarini himoya qilishi, yakun yasash.

Quyida ayrim ishchanlik o'yinlaridan misollar keltirib o'tamiz:

«Firma ochish» ishchanlik o'yini. Ushbu ishchanlik o'yini o'quvchilarning iqtisodiy yo'nalishdagi kasblarga qiziqishini oshirishga mo'ljallangan. Uni maxsus sinflarda, yuqori sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan yozgi dam olish oromgohlari, maktablar va kasbga yo'naltirish kurslarida tashkil etish hamda o'tkazish mumkin.

«Firma ochish» ishchanlik o'yini 8–9-sinf o'quvchilarini broker, menejer va kommivoyajor (xususiy korxonalar yoki firma mollaridan nusxa olib, buyurtma to'plovchi vakil) va boshqa kasblar bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. O'yin davomida ushbu kasblar mazmuni tahlil etiladi va muhokama qilinadi. O'quvchilar o'z imkoniyatlarini o'yin davomida namoyon etadilar.

O'yinda 40 tadan 150 nafargacha kishi ishtirok etishi mumkin.

O'yin uchun zarur narsalar: qog'oz, bo'yoqlar, flomasterlar, yelim, hay'at a'zolari ishlari uchun uch xil rangli jetonlar, konvertga solingan topshiriqlar va ishtirokchilarni taqdirlash uchun mukofotlar. Musiqa asboblarning bo'lishi o'yin uchun yanada yaxshi bo'ladi.

O'yin zalda tashkil etiladi. O'z navbatida, guruhlarining ishlashi uchun ham qulay qo'shimcha bir necha xonalar bo'lishi lozim.

O'yinni o'tkazish bosqichlari:

1. Tayyorlov bosqichi (bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq kasblarni tanishtirish).
2. Boshlovchining kirish so'zi (tanishuv, maqsad va o'yinning borish tartibi).
3. «Firma filiallari»da ishlash.
4. Filiallarning reklamas chiqishlari).
5. Firma prezidentining saylovoldi kampaniyasi.
6. Yakuniy xulosalar va g'oliblarni taqdirlash

I. Tayyorlov bosqichi.

O'yinga qadar bir necha kun o'quvchilar bozor iqtisodiyoti sharoitidagi yangi kasblar bilan tanishtiriladi. Ularga keng tarqalgan kasblar ro'yxati taqdim etiladi (ilovada keltirilgan). O'yin ishtirokchilari kasblar bilan mustaqil tanishgandan keyin uni quyidagi sxema bo'yicha taqdimotni amalga oshiradilar. O'quvchilar o'zlari uchun eng mos kelgan kasblardan birini tanlaydilar:

- bu kasb egasi nima bilan shug'ullanadi?
- unga qanday bilimlar va ma'lumotlik darajasi lozim?
- muvaffaqiyatli ishlashi uchun qanday kasbiy ahamiyatdagi sifatlar

u qayerda ishlashi mumkin?

Bu o'yin ishtirokchilariga yordam uchun oldindan kasblarning qisqacha tavsifi yozilgan kartochkalar beriladi.

II. O'yinning boshlanishi.

Kirish so'zi.

O'yin boshlovchining ishtirokchilarni o'yin vaziyatlari, shartlari bilan tanishtirishdan ibo- rat kirish so'zi bilan boshlanadi. Kirish so'zining taxminiy matni:

«Hurmatli do'stlar, sizlar uchun qiziqarli ma'lumot bermoqchiman. Respublikamizda mashhur bo'lgan «Fayz» firmasi jahon bozo- ridagi o'z faoliyatini kengaytirmoqchi. Uning boshqa davlatdagi filiallari ochilishi munosabati bilan katta loyiha ishlarining marketing tahlilchilariga zaruriyat sezmoqda. Biz firmaning yangi ochilayot- gan bo'sh o'rinlariga tanlovda ishtirok etishga taklif etamiz.

Firma prezidentiga – ishchan, shijoatli shaxs, biznesdan xabardor, hech bir daqiqa vaqtini bekorga sarflamaydigan shaxsni hamda firmada ishlash uchun va uning ravnaqi hissa qo'sha oladigan qobiliyatli, yuqori malakali, ijodkor va tashabbuskor mutaxassislar quyidagi sohalar bo'yicha kerak: menejerlar, kommivoyajorlar, reklama agentlari, marketing tadqiqotchilari, fotomodellar, kotiba-referentlar, kompyuter bo'yicha mutaxassislar va bosh- qalar.

Sizlarning barchangiz ushbu firmaga ishga kirishni xohlaysiz. Bizda ishga qabul qilish hay'ati ish olib boradi (siz qaysi ishga kirmoqchisiz?).

Buning uchun «Nima uchun bu firmaga ishga kirmoqchisiz?», «Avval qayerda ishlagansiz va nimani mukammal tarzda bajara olasiz?» degan savol lar asosida «afsona» to'qing. Hay'at a'zolarini firma uchun nomzodingiz eng ishonchli ekanligiga ishontirishga harakat qiling.

Ishchi guruhlariga ajratamiz. Firma boshliqlari ishda qobiliyatli bo'lgan xodimlarni tekshirib olishni xohlaydilar.

Har bir jamoa bir qator topshiriqlarni bajaradi:

- filialni tashkil etish loyihasini tayyorlash (uni nomlash, asosiy tamoyillari yoki shiorini ishlab chiqish);

- mahalliy tovarlar reklamasini o'ylab ko'rish (qaysilarini tanlash qur'a orqali hal etiladi), maksimal darajada o'z qobiliyatini namoyon qilish. Taqdim etilayotgan loyiha rasmlar, kastumlar, she'rlar, ashulalar va hazil-mutoyiba tarzda namoyish etishga mo'ljallangan reklama roligi, teatr- lashtirilgan ko'rinish, ertak va boshqalar ko'rinishida bo'lishi mumkin;

- firmaning ijrochi direktori lavozimiga ishonchli menejer nomzodini taqdim etish.

So'ngra o'yin ishtirokchilari 10–15 kishilik guruhlariga birlashishadi (3 tadan 6–8 tagacha guruhlariga ajratish mumkin). Boshlovchi guruh masla- hatchilarini tanishtiradi. Firma filiallarini reklama qilish vazifalari qur'a orqali aniqlanadi. Topshiriqlarni konvertdan tortib olish uchun har bir guruhdan bitta vakil taklif etiladi. So'ngra guruhlar o'z ishchi o'rinlarini egallashadi.

III. «Firma filiallari» – guruhlarda bajariladigan ishlar.

Har bir guruhdagi ishni maslahatchi tashkil eta- di. U guruhdagi topshiriqlarni aniqlashtiradi va o'quvchilarning faoliyatini samarali tashkil etishga ko'maklashadi.

Firma filiallarida bajariladigan ishning tartibi:

1. Filial mutaxassislarini bo'sh o'rinlarga joylash- tirish. Buning uchun:

a) boshlovchi bo'sh o'rinlar ro'yxati bilan tanishtiriladi / o'quvchilarni oldindan tanishtirish uchun kasblar ro'yxati bo'yicha /menejer, referent, bosh hisobchi va boshqalar; b) o'quvchilar tayyorlagan ma'lumotlarda bu kasblar haqida ma'lumot

berishadi.

Boshlovchi o'quvchilarda mehnat faoliyati va zarur sifatlar haqida yaqqol tasavvurni hosil qilish uchun qo'shimcha ma'lumot taqdim etishi mumkin;

b) boshlovchi filialda ushbu o'ringa nechta talabgor borligini aniqlash- tiradi (barcha xohlovchilar tanlovda ishtirok etishlari mumkin);

d) talabgorlar o'zlari haqidagi ma'lumotlar bilan navbatma-navbat tanishtirib chiqadilar (o'zlarini tanishtirishlari uchun 1 daqiqa beriladi);

e) nomzodlarni baholash: agar bo'sh o'ringa nomzodlar kam bo'lsa (2– 3 kishidan), ularning har biriga o'zini tanishtirishga vaqt beriladi. So'ngra ularning har birini 3 ball bo'yicha baholaydilar. Nomzodlar ko'p bo'lsa (5 ta

va undan ortiq), u holda har bir taqdimotdan keyin talabgorni guruh ishtirokchilari to'planishib baholashadi. Boshlovchi natijalarni hisoblab chiqadi, ularni rasmiylashtiradi va eng yuqori ball to'plagan nomzodni g'olib deb e'lon qiladi. G'olib bo'sh o'ringa ishga qabul qilinadi.

2. Guruh shtatlar to'liq shakllantirilgandan so'ng o'zining nomini va shiorini tanlaydi hamda ish boshlaydi.

3. Guruhning asosiy vazifasi ishlab chiqarilgan mahsu- lotlarni reklama qilishdan iborat.

Guruhga firmaning mahsulotini reklama qilishi uchun materiallar tayyorlashiga (matn, plakat, klip, ertak yoki boshqalar) 30 daqiqa beriladi. Guruhning bu bosqichdagi ishini tanlab olingan menejer tash- kil etadi (filial prezidenti tashkil etadi).

4. Guruh firmaning ijrochi direktori lavozimi- ga o'tkaziladigan, boshqa guruhlar tomonidan tayyorlangan har xil savollarga javob beradigan, o'zining taqdimotini amalga oshiradigan umumiy tanlov uchun o'z nomzodini tanlab oladi.

5. Ishning yakunida guruh nomzodlarning matbuot anjumani uchun bir nechta savollar tuzadi (boshqa guruhdagi har bir nomzod uchun bittadan).

Guruh topshiriqlari ketma-ket yoki vazifalar guruh a'zolari orasida taqsimlanib bajariladi.

IV. Filiallar reklamasi taqdimoti (guruhlarning chi- qishlari).

Barcha guruhlar firmaning ijrochi direktori va reklamalar tan- lovlari o'tkaziladigan zalda yig'iladilar.

1. Har bir guruh a'zolari orasidan o'qituvchilar, guruh maslahatchi- laridan tashkil etilgan hay'at tarkibi e'lon qilinadi. Hay'at a'zolari ishi har xil tamoyilga tayanib tashkil etilishi mumkin. Masalan, reklamani har xil rangli jetonlardan iborat 3 balli tizim bo'yicha: a'lo, yaxshi,

2. Guruhlarning chiqishlari tartibi qur'a tashlash asosida belgilab olinadi.

3. Guruh reklamalari taqdim etiladi.

V. Firma prezidentining saylovoldi kampaniyasi.

Firmaning ijrochi direktorligiga nomzodlar sahnada tayyorlab qo'yil- gan o'rinlarga taklif etiladi. So'ngra ularning har biri saylovoldi chiqishini taqdim etadi va boshqa guruhlarning savollariga javob beradi. Hay'at a'zolari nomzodlarni baholashadi.

VI. Yakuniy xulosalarga kelish va g'oliblarni taqdirlash.

Hay'at a'zolari ish yakuni yuzasidan xulosaga kelishadi va g'olibni e'lon qilishadi. Eng yaxshi reklama taqdimotini amal- ga oshirgan filial va yangi saylangan firmaning

ijrochi di- rektori taqdirlanadi hamda firmaning ramziy kaliti top- shiriladi. Hay'at a'zolari boshqa ishtirokchilarga «Eng jozibador ishtirokchi», «Eng faol ishqiboz», «Mardonavor 'alabasi uchun» kabi «mukofot»larni taqdim etishlari mumkin.

O'yinning borishi uchun vaqt taqsimoti taxminan quyidagicha:

kirish so'zi va o'yinning boshlanishi – 20 daqiqa;

guruhlarda ishlash – 90–120 daqiqa;

guruhlar taqdimoti (filiallar reklamasi) – 45 daqiqa;

saylovoldi kampaniyasi – 45 daqiqa;

yakunlash va rag'batlantirish – 10 daqiqa.

Eslatma: o'yinni dars va darsdan tashqari ja- rayonda davom ettirish mumkin.

Aniqroq aytganda, o'yinning 1–3-bosqichlarini darsdan tashqari faoliyat jarayonida, 4–6-bosqichlarini darsda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

«Kasbni toping» o'yini. O'yinning maqsadi: o'quvchilarni kasblarning psixologik chizmasi bilan tanishtirish. O'yindan o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirishda foydalaniladi.

O'yinning sharti. O'yin sinf bilan ishlashga (7–11-sinf o'quv- chilar uchun) mo'ljallangan. O'yinning dastlabki ijrosi 10–15 daqiqaga mo'ljallanadi. O'yinda sinf doskasi, kasblar ro'yxati aks ettirilgan jadvaldan foydalaniladi. O'yin g'oliblarini aniqlash uchun mezonlar ishlab chiqiladi. Agar kasblarni topish bilan bog'liq savollarga javob berishda 10 ta xatoga yo'l qo'yilsa, ular mag'lubiyatga uchragan sanaladi. O'yin yakunida g'oliblar aniqlanadi.

O'yinning diagnostik imkoniyatlari.

O'quvchilarning kasblar to'g'risidagi bilimlarni va kasblarni tahlil etishga o'rganganligini aniqlash- ga yordam beradi.

O'yinda uchraydigan qiyinchiliklar.

«Kasbni top» o'yini nisbatan ancha murakkab o'yin sanaladi. Shu sababli o'yin davomida ishtirokchilar mag'lubiyatga ko'p uchray- versalar, bunga odatlanib qoladilar. Natija- da o'yinning ahamiyati yo'qoladi. Agar o'yin ijrosi yaxshi chiqmasa, ikkinchi bora o'yin- ni tashkil etish kerak emas. Agar topshiriqqa murakkab kasb taqdim etilsa, uning ba'zi bandlarini tavsiflash qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun tavsiflash qiyin bo'lgan bandlar boshqalari bilan almashtirilishi lozim bo'ladi.

O'yinni takomillashtirish istiqbollari.

O'yinni rivojlantirishning eng maqbul yo'li kasblarni tavsiflashning eng maqbul variantini topishdan iborat. Shuningdek, o'yinni o'tkazish tartibini takomillashtirish ham lozim.

O'yin bosqichlari.

Tayyorlov bosqichi: o'yindan oldin o'quvchilar «kasblar formulasi» bilan tanishtiriladi. Bunda faqat formula tushuntirilibgina qolmasdan, balki bir necha kasblar sinf bilan birgalikda muhokama qilinadi. Ayrim hollarda nafaqat sinf, balki psixolog ham ba'zi bandlar bo'yicha kasbni tavsiflash- da muammoga duch kelishi mumkin. Bu hollarda kasblar haqida yetarlicha ma'lumotga ega emaslikni tan olish lozim. Hattoki, kichik shubhalanish holatini ham bartaraf etish zarur. O'quvchilarni o'yinni ijro etishga tayyorlash kerak.

1. Sinfning oldida kasblar formulasi yoki kasblarni tahlil etish jadvali turishi lozim.

2. Guruh a'zolarining ixtiyoriga ko'ra uch kishilik guruhchalar tashkil etiladi.

3. Umumiy yo'nalish berish: «Hozir uch kishi auditoriyadan chiqib ketadi. Ular sinfxona uchun kasblar bo'yicha topishmoq tayyorlaydilar va taqdim etadilar. So'ngra tashqaridagi uch kishi sinfxonaga kiradi. Sinf a'zolarining har biri 3–5 daqiqa davomida kasbni tahlil etish chizmasi bo'yicha ularni kuzatadi. 3–5 daqiqadan so'ng topishmoqni taqdim etuvchilar guruhchalarning a'zolaridan birini tanlaydi. Tanlangan o'quvchi sinf doskasida kasbni tahlil etish bo'yicha o'zining variantini taqdim etadi. Kasbni tahlil etish chizmasining kengaytirilgan varianti taqdim etiladi.

Mazkur variant amaliy jihatdan 7–8-sinf o'quvchilari bilan ishlash uchun mo'ljallangan.

Masalan, «Matematika o'qituvchisi» kasbi quyidagicha tahlil etiladi: mehnat predmeti – odam, belgi; mehnat maqsadi – gnostik, ixtirochilik va tub o'zgarishlarga qaratilgan; mehnat vositalari – funksional; shart-sharoitlari – maishiy mikromuhit va boshqalar. Shundan keyin kasbni topuvchi har bir ishtirokchi bitta imkoniyatga ega va 1 daqiqadan so'ng o'zining javob variantini taqdim etadi. Agar jamoaning birinchi aytgan bitta varianti to'g'ri bo'lsa, jamoa g'olib sanaladi.

4. Javobni to'g'ri topgan o'quvchilar sinfxonadan tashqariga chiqadilar. Ular ham sinfdagi boshqa o'quvchilar uchun topishmoq taqdim etadilar.

5. Boshlovchi topishmoq taqdim etuvchilarni sinfxonaga taklif etadi. Ular auditoriyaga kasblarning tahlil etish chizmasi bo'yicha topishmoqni sinfga taqdim etishadi.

6. Topishmoqni topish uchun guruhlar orasidan ishtirokchi tanlab olinadi.

7. So'ngra bir daqiqa davomida ular o'zlarining javob variantlarini taqdim etishlari lozim bo'ladi.

8. Ularning kasbni to'g'ri topgan va topmaganligi baholanadi. Buning uchun topishmoq sifatida taqdim etilgan kasb nomi aytiladi.

O'yinni muhokama qilish.

Boshlovchi kasbni tahlil etish chizmasining har bir bandi bo'yicha sinf bilan birgalikda doskada yozilgan uchta variantning to'g'ri va noto'g'ri javoblarini aniqlaydi.

«Uch taqdir» o'yini. Ushbu turdagi ishchanlik o'yinlari asosan matbuot anjumani yoki munozara ko'rinishida tashkil etiladi. Odatda, bunday o'yinlarda 20–25 nafar o'quvchi qatnashishi mumkin.

O'yinning maqsadi: turli toifadagi insonlar haqida jamiyatda mavjud bo'lgan nuqtayi nazarlar asosida mehnat qilishga ehtiyoj uyg'otishdan iborat.

Davomiyligi: 30–45 daqiqa.

Asosiy bosqichlar: o'yin boshlanishidan avval o'quvchilar orasidan uchta xohlovchi o'quvchi tanlanadi. Odatda, o'quvchilar dastlabki paytda tortinchoqlik qilib, hech birlari (garchi o'yin o'ynashni istasalar ham) tashabbus bildirmaydilar. Bunday vaziyatda oddiy usuldan foydalanish mumkin, ya'ni o'quvchilarga agar xohlovchi o'quvchilar bo'lmasa, o'yinni tashkil

etib bo'lmasligini va keyinga qoldirilishi mumkinligini aytish kifoya, odatda, oxirgi daqiqalarda kimdir, albatta, rozilik beradi.

Ko'rsatmalar: tasavvur qiling: bizning sayyoramizga koinotning boshqa sayyorasidan uchta bola kelib qoldi. Ular bizning sayyoramizga mehmon bo'lib kelganlaridan juda mamnunlar, hatto shu yerda umrbod yashab qolmoqchilar. Bugun

bizning maktab o'quvchilari bilan suhbatlashgani keldilar. Lekin ular uch xil xulq-atvorga ega. Ulardan birinchisi – o'ta mehnat- kash, qiziquvchan va haqiqiy baxtni boshqalarga foyda keltirishda deb biladi. Ikkinchisi – biroz yalqov, uning fikriga ko'ra, mehnat qilish boshqalar- ning ishi, uning o'zi mehnat qilishni yoqtirmaydi. Uchinchi o'zga sayyoralik esa mutlaqo qobiliyatsiz, ammo yer sayyorasida qolib shunday mavqeni egallamoqchiki, natijada barcha aqlli va iste'dodli insonlar uning qo'l ostida bo'lishi lozim.

Qizig'i shundaki, biz ularning qay biri qaysi toifaga kirishini bilmaymiz.

Ular hozir bizning oldimizga suhbatlashgani kelishadi va biz ular bilan

yaxshiroq tanishib olish uchun turli savollar bilan murojaat qilamiz. Oxirida esa umumiy munozarada o'zga sayyoraliklarning qaysi biri bizning yerimizda baxtli hayot kechira olishini taxmin qilib ko'ramiz.

1. Asosiy ishtirokchilar taxminan 3–4 daqiqaga koridorga chiqib turishadi va o'zlari kim va qaysi rolni (stereotip) ijro etishini kelishib oladilar. Qolgan o'quvchilar esa sinf xonasida o'tirib, boshqa sayyoradan mehmonga kelgan bolalar uchun turli savollar tayyorlashadi. Bu savollar ularning hayotiy qiziqishlari, bo'sh vaqtni qanday o'tkazishni yoqtirishlari, oilalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2. Trener oldindan qaysi o'quvchi qanday rolni (stereotipni) bajarishini bilib oladi.

3. Asosiy ishtirokchilar sinfga taklif etiladi. Hurmat va ehtirom bilan to'rga o'tkazilishadi. Bundan so'ng ularning har biriga o'zlari haqida ma'lumot berishlari so'raladi (3–4 daqiqa vaqt beriladi).

4. «O'zga sayyoraliklar» o'z- lari haqida ma'lumot bergach, ishtirokchilarga matbuot anju- manini boshlash taklifi beriladi va ular birin-ketin savollar bilan murojaat qilishadi va javoblarni tinglashadi.

5. 15 yoki 20 daqiqadan so'ng matbuot anjumani yakunlanadi va asosiy ishtirokchilarga minnatdorchilik bildirilgach, ular sinfdoshlari orasiga qaytib o'tiradilar va umumiy muhokama boshlanadi.

6. Dastlab o'quvchilar tomonidan sinfdoshlaridan qaysi biri qanday o'zga sayyoralik bolani tasvirlab bergani haqida taxminlar keltiriladi. Undan so'ng, bu rollarni ijro etgan o'quvchilarning o'zlari qahramonlari to'g'risida fikr bildiradilar.

7. O'qituvchi (kouch-trener) tomonidan xattaxtaga quyidagi ko'rinishga ega jadval chiziladi:

2-jadval

Nuqtayi nazarlarni aniqlash ko'rsatkichlari	Mehnat- kash	Yalqov	Qobiliy at- siz
<i>Sinf tomonidan keltirilgan ko'rsatkichlar:</i> – faollik; – maqsadga intiluvchanlik; – bilimdonlik; – uquvlilik va h.k.	++++	0+++	++00

<i>Trenerning ko'rsatkichlari:</i> – aniq faoliyatni yaxshi bajarish istagi; – berilgan ishni to'liq bajara olish qobiliyati; – baxtga erishish istagi.	+++	0 + 0	+ 0 0
--	-----	-------	-------

Izoh: + belgisi – mavjud nuqtayi nazarga muvofiq keladi, 0 belgisi – muvofiq kelmaydi.

Jadvalni to'ldirishda o'quvchilar u yoki bu sifatlarni mezon sifatida tanla- shadi. O'z navbatida, o'qituvchi muayyan faoliyatni bajarishga xos ikki holatni jadvalda qayd etadi. Shundan so'ng, o'quvchilar birgalikda bu mezonlarning qaysi biri uchta qahramonning har biriga tegishli ekanini birgalikda aniqlay- dilar.

5-MAVZU: INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR-PEDAGOGIKANING ASOSIY TAMOIYILLARIDAN BIRI SIFATIDA (2 SOAT)

Reja:

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari.
2. Pedagogik innovatsion jarayon mohiyati.

Tayanch tushunchalar: modernizatsiyalash, ta'lim jarayonini modernizatsiyalash, texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologiyalashtirish, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish, innovatsiya, novatsiya, innovatsion ta'lim texnologiyalari, innovatsion jarayon, ta'limiy innovatsion jarayon, ta'limiy innovatsion jarayon bosqichlari.

Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

"O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi" da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovationas" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi".

A.I.Prigojinning fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik –tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim.

Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy

munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Amerikalik psixolog E.Rodgers o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979 yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Ular:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra

- Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan innovatsiyalar
- Ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar

2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra

- Radikal innovatsiyalar
- Kombinatsiyalangan innovatsiyalar
- Modifikatsiyalangan innovatsiyalar

3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra

- Tarmoq (lokal) innovatsiyalar
- Modul innovatsiyalari
- Tizim innovatsiyalari

4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra

- Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan innovatsiyalar
- O'zlashtirilgan innovatsiyalar

Innovatsiyalar turli ko'rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi.

Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi.

Bordi-yu, faoliyat ma'lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

Ilmiy adabiyotlarda "novatsiya" (yangilanish, yangilik) hamda "innovatsiya" (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Misol uchun, V.I. Zagvyazinskiyning e'tirof etishicha, "yangi", "yangilik" tushunchasi nafaqat muayyan g'oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g'oyalarini o'zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mohiyatiga ko'ra novatsiya va innovatsiya o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Ular quyidagilardir (2-jadval):

Novatsiya va innovatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar

Novatsiya	Innovatsiya
1) Amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi;	1) Tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi;
2) Ko'lam va vaqt bo'yicha cheklanadi;	2) Ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;
3) Metodlar yangilanadi;	3) Subyektlarning faoliyati to'la yangilanadi;
4) Natija avvalgi tizimni takomillashtiradi;	4) Yangi texnologiyalar yaratiladi;
	5) Faoliyatda yangi sifat natijasiga erishiladi;
	6) Amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

I.P.Podlaso'yning fikriga ko'ra, ta'lim innovatsionlari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- talaba (talaba) faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;

- ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi;
- ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi

V. Pedagogik innovatsion jarayon mohiyati. Zamonaviy ta'limga

xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy sub'ektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi.

Har qanday innovatsiyada “yangi”, “yangilik” tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, sub'ektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi.

Xususiy yangilik munosabat, ob'ekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi. Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ektning o'zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi. Mahalliy yangilik alohida olingan ob'ekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi. Shartli yangilik esa munosabat, ob'ekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodiretilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi. Rossiyalik olimlar –A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P.Stepanov va b. esa innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o'rganishga e'tiborni qaratgan. Bu o'rinda ular innovatsion jarayonning tashkil etilishiga nisbatan quyidagi ikki yondashuv mavjud ekanligini e'tirof etadi:

1) yangilikning individual mikro darajasi (unga ko'ra qandayir yangi g'oyaga amaliyotga joriy etiladi);

2) alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi mikro daraja (bu o'rinda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirlanishi, birligi, raqobati va birining o'rnini ikkinchisi tomonidan egallanishi ahamiyatli sanaladi).

A.I.Prigojin, B.V.Sazonov va V.S.Tolstoylar o'z tadqiqotlarida yangilik kiritishning tizimli kontsepsiyani asoslashga uringan. Bu o'rinda mualliflar innovatsion jarayonlarning quyidagi ikki muhim bosqichini bir-biridan ajratib ko'rsatishadi:

1. Yangilik sifatida namoyon bo'ladigan g'oyalarni ishlab chiqish (m: korxona, tashkilot tomonidan muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqishning rejalashtirilishi).

2. Yangilik (muayyan mahsulot) ni keng ko'lamda ishlab chiqish.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar kuzatiladi. Ular:

1. Gnostik-dinamik yondashuv (unga ko'ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limiy) innovatsiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni izchil o'zlashtiradilar, o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar).

2. Individual faoliyatli yondashuv (bunda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan holda amaliyotda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar).

3. Ko'p sub'ektki (dialogik) yondashuv (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro, xususan, ko'p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta'lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzoqluqsiz qo'llashga doir tavsiya hamda ko'rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).

4. Insonparvarlik yondashuvi (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

5. Individual-ijodiy yondashuv (unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi).

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualar muammolarini echishga qaratilgan faoliyat.

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;

- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida BKMni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

M.Jumaniyozovanning e'tirofi etishicha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik kontseptsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglarning tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish

V.Slasteninning fikriga ko'ra innovatsion yondashuv quyidagilarga ega bo'lishni ifodalaydi:

- ijodiy faollik;
- faoliyatga yangilik (o'zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;
- yangicha fikrlash;
- yuksak muomala madaniyati.

Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o'zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo'llaniladi. Bu turdagi innovatsiyalarni asoslash muayyan bosqichlarda kichadi:

1-bosqich: Yangi g'oyaning tug'ilishi yoki yangilik mohiyatini erituvchi kontseptsianing ishlab chiqilishi (kashfiyot bosqichi).

2-bosqich: Yangi g'oya tayangan holda yangilikning asoslanishi.

3-bosqich: Asoslangan yangilikning amaliyotda qo'llanilishi.

4-bosqich: Yangilikning yoyilishi va keng ko'lamda amaliyotga tadbiiq etilishi.

5-bosqich: Yangilikning tegishli sohada hukmronlik qilishi (yangilik mohiyatini yo'qotadi, izlanishlar natijasida uning yanada samarali muqobili yaratiladi).

6-bosqich: Mukobillik, almashtirish orqali sohada yangilikni qo'llash doirasini qisqartirish.

R.N.Yusufbekova pedagogik nuqtai nazardan innovatsion jarayon tuzilmasi

1. Sohada namoyon bo'layotgan yangilikni ajratib ko'rsatuvchi blok (unda pedagogikadagi yangi g'oyalar, pedagogik yangiliklarning tasnifi, ularni asoslashga xizmat qiladigan shart-sharoitlar, yangilik darajasini belgilovchi me'yorlar, pedagoglarning yangiliklarni o'zlashtirish va unan amaliyotda samarali

foydalanishga tayyorliklari, an'analar va novatorlik tashabbuslari, sohada yangiliklarni yaratish bosqichlari aks etadi).

2. Pedagoglar tomonidan yangilikning idrok qilinishi, o'zlashtirilishi va baholanishi ifodalovchi blok (unda pedagogik jamoalar tomonidan yangiliklarning baholanishi va o'zlashtirilishi – turli innovatsion jarayonlar, konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamoalarning yangilikni idrok etish va baholashga tayyorliklari aks etadi).

3. Yangilikdan foydalanish va uni joriy etish bloki (unda yangilikni amaliyotga tatbiq etish va ulardan samarali foydalanish hodisasi ro'y beradi).

Bu o'rinda M.M.Potashnik tomonidan e'tirof etilgan innovatsiya jarayonlar mohiyatini ifodalovchi talqin alohida ahamiyatli ekanligini ko'rsatish o'tish maqsadga muvofiqdir. Mazkur talqinga ko'ra innovatsion jarayon quyidagi tuzilmalarga ega:

Faoliyat tuzilmasi: Motiv – maqsad – vazifa – mazmun – shakl – metodlar – metodika komponentlari yig'indisi

Subyektiv tuzilma: Innovatsion jarayonda ishtirok etuvchi subyektlar

Darajali tuzilma: Innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va b. darajalari

G'oyaviy tuzilma: O'quv jarayoni, ma'naviya-ma'rifiy ishlar, boshqaruv va h.k. ga yangilikni paydo bo'lishini, ishlash chiqishini va uzatilishini ta'minlash

Davriylik tuzilmasi: Yangilikning paydo bo'lishi – jadal rivojlanish – kamolot tushkunligi – uzatilishini, diffuziyasi (singib ketishi, tarqalishi) – yangi holat bilan boyitilishini – kollokik – inkor – yangilanish (aldanish) – zamonaviylashtirish

Boshqaruv tuzilmasi: Boshqaruv jarayoni (rejalashtirish – tashkil etish – rahbarlik qilish – nazorat) elementlarining o'zaro aloqasi

Tashkiliy tuzilma: Diagnostik, prognostik, tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi va tatbiq etuvchi innovatsiyalar

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'lish bilan birga muayyan qonuniyatlarga ham bo'ysunadi. Mazkur jarayon uchun quyidagi to'rtta qonuniyat xarakterli sanaladi:

1-qonuniyat: Pedagogik innovatsion muhitning keskin beqarorlik

2-qonuniyat: Amalda oshish

3-qonuniyat: Ko'plablashtirish (stereotiplashtirish)

4-qonuniyat: Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishi va qaytarilishi

Keskin beqarorlik qonuniyatiga ko'ra pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar o'zgaradi, shakllangan pedagogik yangilik baholanadi va bu yangilikning ahamiyati, qiymati e'tirof etiladi.

Amalga oshish qonuniyati yangilikning hayotiyiligini ifodalaydi, unga ko'ra yangi pedagogik innovatsiyalar stixiyali yoki ongli ravishda o'ta tezkor yoki tezkor ravisha amaliyotga tatbiq etiladi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuniyati aksariyat pedagoglarda yangicha tafakkurning qaror topganligini va ularning innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'lida faollik ko'rsatishlarini tavsiflaydi. Bu jarayonda dastlab innovatsion xarakter kasb etgan g'oyalar yanada ilg'or yangiliklarni amalga oshirish yo'lida to'siq bo'la boshlaydi.

Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishiva qaytarilishi qonuniyati yangiliklarning yangi, yanada qulay sharoitlarda qayta tiklanishini ifodalaydi.

Odatda pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi ikki xil kechadi:

1. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, innovatsion jarayonda pedagogik yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, ularni amaliyotga tatbiq etishda mavjud shart-sharoitlar, usul va yo'llariga ongli munosabat bildirilmaydi.

2. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, pedagogik yangiliklar innovatsion jarayonda ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsuli sifatida amaliyotga joriy etiladi

Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi.

Ta'lim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi.

Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga

ko'ra ta'lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

Nazorat savollari

1. Innovatsiya nima?
2. Innovatsion ta'lim qanday ta'lim sanaladi?
3. Ta'lim innovatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
4. Ta'lim innovatsiyalarining qanay turlari mavjud?
5. Nimalar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi?
6. Novatsiya va innovatsiyaning asosiy farqlari nimalarda ko'rinadi?
7. Innovatsion jarayonlar qanday yondashuvlar asosida tashkil etiladi?
8. Innovatsion faoliyat nima va unga qanday belgilar xos?
9. Innovatsiyalarni asoslash qanday bosqichlarda kechadi?
10. Innovatsion jarayon qanday tuzilmalarga ega?
11. Innovatsiya jarayon qanday qonuniyatlarga bo'ysunadi?
12. Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish qanday bosqichlarda kechadi?
13. Pedagoglarda innovatsion yondashuvni qaror topish qanday bosqichlaran iborat?

AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: Mohiyati va rivojlanish bosqichlari (2 soat)

Reja:

1. Pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanish shart-sharoitlari.
2. Pedagogik texnologiyaning mohiyati va asosiy komponentlari.
3. Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari.

IDROK XARITASI

Idrok-xaritalari – bu har qanday jarayonni yoki hodisani, fikr yoki g'oyani majmualashtirilgan, tizimlashtirilgan, vizual (grafik) shaklda taqdim etish usulidir.

Idrok xaritalarini o'z hayotingizni rejalashtirishda qo'llashingiz mumkin. Ko'p holatlarda katta hajmdagi ma'lumotlar tufayli hodisa yoki vaziyatni to'liq manzarasini ko'rmasligimiz mumkin, idrok-xaritasi ko'rinishidagi rejalashtirish, vaziyatni yaxlit ko'rish imkonini beradi.

Biron-bir tadbirni tashkillashtirishdan boshlab, o'zingizning shaxsiy biznesingiz loyihasigacha bo'lgan loyihalarni rejalashtirish mumkin. Hayotni, yilni, oyni, haftani, kunni rejalashtirib, ishlarni hayotingizdagi ahamiyati va muhimligiga qarab joylashtirish mumkin. Budjetingizni idrok-xaritalar yordamida rejalashtirish, muhimligiga qarab sarf harajatlarni joylashtirish, ularni bajarish va o'zgartirishlar kiritishni kuzatish imkonini beradi.

Idrok-xaritalari to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Qaror qabul qilish jarayonida – «boraymi-bormaymi», «sotib olaymi-olmaymi», ishimni o'zgartiraymi yoki o'zgartirmaymi» kabi vaziyatlar vujudga kelganda, idrok-xaritalari ushbu masalalarga mulohaza qilgan holda kelishga yordam beradi: Idrok-xaritasi bir varog'da, muammoni yechish uchun zarur bo'lgan bor ma'lumotlarni yig'ishga va unga yaxlit holda nazar tashlashga imkon beradi.

Idrok-xaritalari u yoki bu yechimning salbiy va ijobiy tomonlarini ko'zdan qochirmaslikka ko'maklashadi. Idrok-xaritalari assotsiativ tafakkur qilish jarayonini faollashtiradi va bu an'anaviy tahlil vaqtida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni keltirib chiqargan muhim omillarni ko'rishga imkon beradi. Bunga qo'shimcha idrok-xaritalarida obrazlar va ranglarni qo'llash intuitsiyani faollashtiradi, bu esa qabul qilinayotgan qarorlarning to'g'riligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

«**Idrok xaritasi**» texnologiya metodidan foydalanganimizda tinglovchilarga mavzu bo'yicha tarqatma materiallar, **A 3** formatdagi qog'ozlar va rangli flamastrlar tarqatiladi.

1. guruhga Innovatsion pedagogikaning g'oya va tushunchalari
2. guruhga Innovatsiyaning rivojlanishi
3. guruhga Innovatsion faoliyat
4. guruh esa ekspert guruhi sifatida ishtirok etishadi.

Namuna: *Innovatsion pedagogikaning g'oya va tushunchalari*

.....



2-MAVZU: Interfaol ta'lim: Asosiy shakllar, tamoyillar va ishtirokchilar (2 soat)

Reja:

1. Interfaol ta'limning qonuniyatlari va asosiy tamoyillari.
2. Interfaol ta'limning asosiy shakllari.
3. Pedagogik texnologiyalarni interfaol ta'limda qo'llash.

1.Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'lim tizimi.

Tinglovchilar 6-7 ta guruhlariga bo'linadi. Guruh tinglovchilariga Interfaol ta'limning qonuniyatlari va asosiy tamoyillari oid matnli tarqatma matnlar tarqatiladi. Tinglovchilar rivojlangan davlatlarni «VENN DIAGRAMMASI» texnologiyasidan foydalangan holda ta'lim tizimini o'rganishadi, qiyosiy tahlilini va o'xshashlik taraflarini ko'rsatib beriladi. Xamma guruhlar yakunlagandan keyin guruh sardorlari chiqib taqdimot qilib berishadi.

«VENN DIAGRAMMASI» asosida ishlang.

Ushbu metod tinglovchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi.

Metod tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu metoddan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishga foydalanish yanada samaralidir.

«*Venn diagrammasi*» metodi 2 va 3 jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taxlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. «*Venn digrammasi*»-grafik ko'rinishda bo'lib olingan natijalarni umumlashtirib ulardan bir butun xulosa chiqarishga ikki va undan ortiq predmetni tahlil qilish va o'rganishda qo'llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo'ladi.

«*Venn diagrammasi*»ni amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. Tinglovchilar (sheriklari bilan) ikki doirani to'ldiradilar. Har bir doiraga ikki tushuncha e'tiborli tomonlari sanab o'tiladi.


2-bosqich. Tinglovlarni kichik guruhlariga(4-5 kishidan iborat) birlashtirib diagrammalarni taqqoslaymiz va to'ldiramiz.

3-bosqich. Kichik guruh tingloviga bu tushunchalarning umumiy xossalarini aniqlashni taklif etamiz.

4-bosqich. Biror bir guruh vakili har bir tushunchaning o'ziga xos tomonlarini o'qiydi. Boshqalar zarurat bo'lganda uni javobini to'ldiradi.

5-bosqich. Boshqa guruh vakili ikki tushunchani birlashtiruvchi (umumiy) xususiyatlarini o'qiydi. Boshqalar zarurat paydo bo'lganda bu javobni to'ldiradilar.

VENN DIAGRAMMASINI TO'LDIRING.




3-MAVZU: Muammoli ta'lim texnologiyalari va ularning xususiyatlari (2 soat)


«Klaster» metodi

«**KLASTER**» *metodi* - ta'lim oluvchilarda berilgan mavzu xususida erkin fikrlash va turli javoblar o'rtasida bog'liqlik o'rnatish va guruhlash imkoniyatini yaratuvchi metoddir.

1. Topshiriq. Innowatsion ta'lim jarayonida pedagogning roli.



«KLASTER « METODI



2 Topshiriq. Pedagogning innovatsion faoliyatining eng muhim elementlari.

Tinglovchilar 4-5 ta guruhlarga bo'linadi. Guruh tinglovchilariga «Pedagogning innovatsion faoliyatining eng muhim elementlari» mavzusi bo'yicha tarqatma materiallar beriladi. Tinglovchilar fikrlarini bayon etishadi, bildirilgan fikrlarga sabab ko'rsatib berishadi, ko'rsatib bergan sabablariga misol keltirishadi va eng so'ngida fikrlarini umumlashtirishadi.

«FSMU» metodi - munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminarlari yakunida o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin. Bunda tinglovchilar o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazish, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga

egallagan bilimlarini baholashga, tahlil etishga hamda tinglovchilarda bahslashish madaniyatini o'rgatadi.

Ф	ФИКРИНГИЗНИ БАЁН ЭТИНГ
С	ФИКРИНГИЗНИ БАЁНИГА САБАБ КЎРСАТИНГ
М	КЎРСАТГАН САБАБИНГИЗНИ ИСБОТЛАБ МИСОЛ КЕЛТИРИНГ
У	ФИКРИНГИЗНИ УМУМЛАШТИРИНГ

3 Topshiriq. Pedagog va bolaning ta'limiy jarayondagi tutgan o'rnining o'zgarishi.



Topshiriq. Pedagog va bolaning ta'limiy jarayondagi tutgan o'rnining mazusidagi amaliy mashg'ulotda tinglovchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgna bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya tinglovchilar bilan bir guruh ichida yakka holda yoiki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.

Texnologiyaning maqsadi: Tinglovchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ularda nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanilishi: Amaliy mashg'ulotlarda yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida ham qo'llash mumkin.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- Mavzular soniga ko'ra tinglovchilar 3-5 kichik guruhlarga ajratiladi.
- Mashg'ulot maqsadi va uni o'tkazish tartibi tushuntiriladi.

- Har bir guruhga qog'ozning chap tomonida kichik mavzu yozilgan varaqlar tarqatiladi.

- Tinglovchilarning kichik mavzu bo'yicha fikrlarini qog'ozning o'ng tomoniga yozish uchun vaqt belgilanadi.

- Belgilangan vaqt tugagandan so'ng, ketma-ketlik asosida guruh vakillari o'z ishlarini taqdimot qiladilar.

- Tayyorlangan ishlar doskada ketma-ketlikda(tagma-tag), ya'ni zina shaklida ilib qo'yiladi.

- Tinglovchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh beradi, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Masalan, tasviriy faoliyati mashg'ulotida «Pedagog va bolaning ta'limiy jarayondagi tutgan o'rnining o'zgarishi» mavzusini o'tishda «Zinama-zina» texnologiyasidan foydalanish samarali natija beradi. Dastlab tarbiyachi bolalarga Baxor fasli haqidagi xikoya, she'rlarni aytib beradi. Baxor faslini aks etuvchi saxnalashtirilgan o'yinlarni tashkil etadi.

Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish davomida tarbiyachi asosiy mavzuni quyidagi kichik mavzularga bo'lib chiqadi va tarqatma materiallar tayyorlaydi.

Barcha guruhlar taqdimot qilib bo'lgandan so'ng, tinglovchilar guruhlar ishini umumlashtirib, xulosalaydi. Aytilmagan fikrlar, yangi ma'lumotlar bo'lsa, tinglovchilar kichik rivoyat sifatida aytib o'tadi. Faol guruhlar rag'batlantiriladi.

«**3INAMA-ZINA**» **TEXNOLOGIYA**SI- bu texnologiyani o'tkazish uchun o'qituvchi tinglovchilarning rangli kartochkalar yordamida teng sonli kichik guruhlarga ajratadi.

Har bir kichik guruh uchun sardorlar tayyorlanadi. Sardorlar mavzu savollarini olib, tinglovchilarga birma-bir berib boradi.

Agar guruh 6 ta tinglovchidan tashkil topgan bo'lsa, har bir tinglovchi savolga javob berishi lozim. Savollar guruh sardorlari tomonidan tinglovchilarning javoblarini nazorat qilinadi.

Tinglovchilar har bir to'g'ri javob uchun bir balldan to'plab jami 5 ballgacha ball to'plashi mumkin. Shundan so'ng, o'qituvchi tinglovchilarning to'plagan baliga qarab qayta guruhlaydi. Tinglovchilar bu topshiriqlarni bajarib bo'lgandan so'ng, o'zaro savol javob o'tkazadilar. Topshiriqni mukammal bajargan kichik guruhlarda g'oliblar aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

4 Topshiriq. Ta'limda loyixa metodlarining mohiyati.

“SWOT-тахпил” методи

Metodning maqsadi: Tinglovchilarda mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tinglovchilar 4-5 ta gurug'ga bo'linadi. Mavzuga oid fikrlarini «SWOT- tahlil» metodida bayon etishadi. Buning tinglovchilarga A3 format qog'ozlar, marker va flamasterlar, stikerlar tarqatiladi.

Namuna: Maktabgacha ta'lim muassasalarida loyixa metodlarining mohiyati nimada? SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• to‘siqlar

5 Topshiriq. MTM tarbiyachisini dialogik nutqni rivojlantirish.

Tinglovchilar kichik guruhlariga bo‘linadi, har bir guruhdan o‘zlashtirilishi rejalashtirilayotgan maktabgacha ta’lim tarbiyachisining dialogik nutqining rivojlantirish mavzusiga oid yozma fikr bildirish so‘raladi. Har bir guruhdan tinglovchilar fikr va mulohazalarini qog‘ozga yozib borishadi. O‘qituvchi matnning mazmuni ifodalangan taqdimotni namoyish etadi. Tinglovchilar bu matn va o‘zlari bildirgan fikrni qanchalik o‘xshashligi va farqini maxsus belgilar bilan qayd etadilar. Har bir kichik guruh a’zolari ushbu topshiriq bo‘yicha ma’lumot berishadi.

INSERT STRATEGIYASI METODI

Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Insert- bu o‘quv jarayonida o‘z anglashini faol kuzatish uchun tinglovchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o‘qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin.

Bu esa odam nima o‘qiyotganini tushunmay, o‘qish jarayonida faol bo‘lishga qatnashmaydigan va o‘z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir.

Insert- bu matn bilan ishlaganda faollikni qo‘llab- quvvatlash uchun kuchli vositadir. Tinglovchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo‘yib boradi, ular esa quyidagi ma’nolarni bildiradi:

V - bilganlarimni tasdiqlaydi

+ - yangi axborot

- - bilganlarimga zid keladi

? - meni o‘ylantirib qo‘ydi.

Matnni insert usulida o‘rganganda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

«V»	« - »	« + »	« ? »
«ha» - o'qiganlaring izdan aniq bilgan yoki bilaman deb o'ylagan ma'lumot	«manfiy» - o'qiganlarin giz, bilganlarin gizga qarama-qarashi ma'lumot	«musbat» - o'qiganlaringiz orasida siz uchun yangi bo'lgan ma'lumot	«savol» - o'qiganlari-ngizdan siz uchun tushunar-li bo'lmagan yoki shu haqda ko'proq narsa bilishni istagan ma'lumot

«Insert»strategiyasi metodi - Ushbu strategiya o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan yangi mavzu bo'yicha talabalarning muayyan tushunchalarga ega ekanliklarini aniqlash va ularda mavzuga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.


4-MAVZU: Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash: Tinglovchilarning amaliy taqdimoti (2 soat)

KICHIK GURUHLARDA ISHLASH

«KICHIK GURUHLARDA ISHLASH» metodi- ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

«KICHIK GURUHLARDA ISHLASH» USULI- bu ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgai darsdagi ijodiy ishni rivojlantirishdir.

Ushbu usul qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish imkoniga, boshlovchi rolida bo'lish, bir-biridan o'rganish va turli fikrlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi. «Kichik guruhlarda ishlash» usuli qo'llanilganda boshqa interfaol usullarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyati mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb etadi va baholay oladi. Quyida «Kichik guruhlarda ishlash» usulining bosqichsi keltirilgan



1.»**KICHIK GURUHLARDA ISHLASH**» metodidan foydalanganimizda tinglovchilarga mavzu matnlar, tarqatma materillar sifatida tavsiya etiladi.

2. Ushbu mavzuga oid ma'lumotlarni «Kichik guruhlarda ishlash» metodida yoritadilar.

3. Har bir guruh jamoasiga A 4 formatdagi qog'ozlar flamaster markerlar beriladi.

Zaruriy materiallar: A 4 format qog'oz, marker flamasterlar, stikerlar
«Kichik guruhlarda ishlash» usulining bosqichlari:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi.

Namuna:

MTM tarbiyachisining innovatsion faoliyatini shakllantirishning shart-sharoitlari

1-qadam: Tinglovchilar 1-4 gacha bo'lgan raqamlar asosida «Kichik guruhlar»ga bo'linadilar (1-2-3-4)

2-qadam: Guruhlar mavzu doirasida o'z guruhlariga nom tanlab, izoh beradilar.

3-qadam. Har bir guruhga savollar beriladi:

1-guruh uchun: Innovatsion strukturaviy komponentlar haqida ma'lumot bering.

2-guruh uchun: Innovatsion jarayonlarni shakllantiruvchi darajalari haqida fikrlaringizni umumlashtiring.

3-guruh uchun: «Farhod va Shirin» dostonidagi qahramonlarga munosabat bildiring.

4-guruh uchun: «Tarbiyachining innovatsion texnologiyalar bosqichlari kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

4-qadam: O'qituvchi tomonidan aniq reglament, intizom, hamjihatlik, o'zaro hurmat, qisqa va anqlik bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

5-qadam: Kichik guruhlar o'z ishlarini «**Taqdimot**» qiladilar.

6-qadam: Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7-qadam: Kichik guruhlar ishi baholanadi.

Bu metod orqali o'zlashtirish yaxshilanadi, barcha tinglovchilar mashg'ulotga jalb etiladi, muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashiga olib keladi, vaqt tejaladi, o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Amaliy topshiriq

1-topshiriq Texnologiya va pedagogic texnologiya haqida tushuncha yozing

2-topshiriq Pedagogik texnologiyaning rivojlanish bosqichlar haqida ma'lumot bering

3-topshiriq pedagogic texnologiya turlarini tushuntiring

“Galereyani aylanish” metodi.

Kichik guruhlarining hamma a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir guruh 10 minut davomida o'z fikrlarini yozadi-da, javoblar zikr etilgan varaqlarni ikkinchi guruh bilan almashtiradi. Keyingi guruh oldingi guruhning javoblarini baholashi va javob tugal bo'lmasa, o'z variantini taklif etishi kerak.

5-Mavzu: Innovatsion ta'lim texnologiyalari: Pedagogikaning yangi yondashuvlari

Inson tafakkuri, aqliy salohiyati yordamida jamiyatning siyosiy-iqtisodiy taraqqiyoti rivojlantiriladi. SHunday yoshlar borki, ular umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olish jarayonida o'qish - o'rganishning ma'lum yo'nalishida o'z iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon qiladilar. Bunday iqtidor, iste'dod, aqliy salohiyatni rivojlantirish zamonaviy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biridir. SHu o'rinda shuni e'tirof etib o'tish joizki, Respublika Prezidenti rahnamoligida mamlakatimizda ta'lim tizimining jahon tajribasida hali uchramagan milliy modeli yaratildiki, u yosh

avlodga dunyo andazlariga mos bilim, iqtidor va malakalarni rivojlantirish, ularni ona Vatanga, milliy mustaqillik mafkurasi g'oyalarida sadoqat ruhida tarbiyalash, yoshlar uchun mustaqil, ijodiy fikrlash malakalarini shakllantirish borasida qilinayotgan g'amxo'rlik natijasida ta'lim-tarbiya ishlarining qiyofasi o'zgardi, yangilandi, ta'lim jarayonida o'qitish turlari xarxillanishiga harakat qilinmoqda.

Amaliy topshiriq

1-topshiriq pedagogic texnologiya haqida tushuncha yozing

2-topshiriq insert texnologiyasini tushuntiring

3-topshiriq muammoli ta'lim bilan an'anaviy ta'limning farqini izohlang

“Akademik munozara” metodi.

Guruh 2 komandaga bo'linadi, bularning har biriga vaziyatga doir topshiriq beriladi. Har bir komandada 1-2 nafar ta'lim oluvchi konsultatsiyaning ijobiy tomonlarini muhokama qiladi – bular “advokatlar” bo'ladi, boshqalar esa, konsultatsiyaning salbiy tomonlarini tahlil qilib chiqadi-bular “prokurorlar”dir.

“Advokatlar” bilan “prokurorlar”ning qo'lga kiritgan natijalari ma'lum qilinadi va butun guruh tomonidan muhokama qilib qichiladi.

Bu metodika ta'lim oluvchining o'sha kungi mavzu yuzasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishini talab qiladi, chunki vaziyatga doir topshiriq yoki rolli bo'lsin, “prokurorlar” tomonidan bo'lsin, obdon anglab olish va dalillar bilan izohlab berishni talab etadi.

6-Mavzu: Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining mohiyati va mazmuni. Mamlakatimiz ta'lim tizimining hozirgi taraqqiyot bosqichi, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash tajribasi, ularning milliy va tarixiy, mafkuraviy shart-sharoitlarga javob berishi, ta'limning an'anaviy modellari umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari, sinfdars tizimi, oliy o'quv yurtlarida ma'ruza, seminar kabi ta'lim shakllari hukmron bo'lgan davrga mos keluvchi texnologiyalarni qo'llash ijobiy natija berishi mumkin. SHu fikrlardan kelib chiqib, ko'pgina rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida, chunonchi, AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya, Isroil, Janubiy Koreya, Singapur mamlakatlarida keng qo'llanib kelinayotgan «Hamkorlikda o'qitish», «Loyihalar metodi», «Tabaqalashgan o'qitish», «O'quvchi papkasi», «O'qitishga individual va differensial yondashish» texnologiyalaridan foydalanishni lozim, deb hisoblaymiz. Bularni o'qituvchi o'z tajribasida qo'llashda ixtiyoriylik prinsipidan kelib chiqish bilan birga, birdaniga sakrab o'tish, ma'muriy majbur qilishdan saqlanish lozim. Bunda ma'muriy aralashish emas balki faqat ularni qo'llash uchun tashkiliy-pedagogik, moddiy baza yaratish o'quv jarayoni va o'quv xonalarini jihozlash jihatidan bo'lishi mumkin. Ularning qaysi birini tanlashda pedagog imkoniyatidan kelib chiqish zarur.

Amaliy topshiriq

1-topshiriq Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi haqida tushuncha yozing

2-topshiriq rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasini tushuntiring

3-topshiriq shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bilan an'anaviy ta'limning farqini izohlang

“Sindikat” metodi.

Guruh 3 ta kichik guruhga bo'linadi, taklif etilayotgan topshiriqni uch xil nuqtai nazardan hal qilish zarur.

SHunday qilib, muhokama vaqtida ta'lim oluvchilar bitta kasallikka turli sharoitlarda davo qilish variantlarini ko'zdan kechirib chiqishadi va davoga doir adabiyotda berilgan tavsiyanomalarni-davo qanday bo'lishi kerakligini muhokama qilishadi. Yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rishadi, o'z bilimlarini oshirib, tanqidiy nuqtai nazardan fikr yuritishni o'rganishadi.

7-Mavzu: O'qitishni texnologiyalashtirishda metod va vositalar.

Mashg'ulotlar mazmunini mahsuldor (produktiv) darajaga ko'tarish – zamonaviy pedagogik texnologiyaga xos xususiyatdir. Ma'lumki, mahsulli mashg'ulot ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mahsulli mashg'ulotlarda o'quvchilar mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallaydilar, o'quv qiyinchiliklarini bartaraf etishga o'rganadilar; sabotli, matonatli, qat'iyatli va fidoyi bo'lib boradilar.

Amaliy topshiriq

1-topshiriq Meyod va texnologiya tushunchasiga ta'rif yozing

2-topshiriq tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasini tushuntiring

3-topshiriq ta'lim metodi va vosita farqini izohlang

“Akvarium” metodi.

Guruhdan ixtiyoriy ravishda 3 kishi tanlab olinadi. Bular auditoriyaning o'rtasidan joy oladilar-go'yoki “baliq”, qolganlar esa, kuzatuvchi bo'lishadi. SHu kichik guruhga bir vaziyat taklif etiladi, ular buni 10-15 minut davomida birgalkda muhokama qilishlari, kuzatuvchilar esa, davradagi o'rtoqlarining to'g'ri yoki noto'g'ri javoblarini yozib borishlari muhokama qilishadi, keyin versiyasi taklif etiladi, uni kuzatuvchilar muhokama qilinashi, keyin kuzatuvchilar o'z versiyalarini taklif etishadi, shu versiyalardan eng yaxshisining muallifi o'z versiyasini taklif etmagan ta'lim oluvchi o'rniga kichik guruhga o'tadi.

Be metodni xuddi “Nima, qaerda va qachon?” degan o'yin singari o'tkazish mumkin, o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan savollarni beradi, ta'lim oluvchilar

bularni 1 minut davomida muhokama qilib, javob berishadi. Javoblar qanoatlanarli bo'lmasa, stolga boshqa uch nafar ta'lim oluvchi borib o'tiradi.

8-Mavzu: Ta'limning "Keys-stadi" texnologiyasi.

Keys-stadi (inglizcha sase - to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzda echimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir.

Keys-stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir .

Amaliy topshiriq

1-topshiriq Keys haqida tushuncha yozing

2-topshiriq keys stadi texnologiyasiga misol keltiring

3-topshiriq Yo'nalishingizdan kelib chiqib keys tuzing

"Ajurli arra" ajur fransuzcha "ajour" so'zidan olingan bo'lib "bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq" ma'nosini anglatadi. Bu metod tuzilishi jihatidan o'zida quyidagi bosqichlarni qamrab oladi.

1. Topshiriqni bo'lish (topshiriq va matinli materiallar bir nechta asosiy qismlarga yoki mavzularga qirgiladi)
2. Birlamchi guruh. Har bir guruh a'zolari qirilgan mavzuni olishadi va ekspertlarga aylanadilar.
3. Ekspert guruhlar. O'quv topshiriqni olgan ta'lim oluvchilar mavzuni muhoqama qilish va boshqalarga o'rgatish uchun ekspert guruhga birlashadilar.
4. Birlamchi guruhlar. Ta'lim oluvchilar o'zlarining birlamchi guruhlariga qaytadilar va ekspert guruhlariga o'rganganlarini o'qitishadi.

"Menyu" Bu metodda guruh kichik guruhchalarga bo'linadi va guruhchalarga aniq topshiriq beriladi. Har bir guruh topshiriq olgach uch daqiqa ichida topshiriqni muhokama qilishadi, keyin har bir guruhdan bittadan vakil o'qituvchi stoli yoniga kelib, oldindan tayyorlab qo'yilgan "menyu"ni olib joylariga o'tirishadi. Bu "menyu" da xilma xil topshiriqlar, savollar yozilgan bo'ladi. SHu tariqa guruhchadagi har bir ta'lim oluvchi kelib "menyu" ni olib unda yozilgan topshiriq vazifalarini bajarishadi. 10 daqiqa

davomida topshiriq muhokama qilinadi va javoblar yozma yoki og‘zaki ravishda beriladi, o‘qituvchi guruh ishlarini, sardor faoliyatini baholab boradi.

9-Mavzu: Ta’limning «Loyiha» texnologiyasi.

Ta’limda loyihalar metodi jahon pedagogikasida mohiyat e’tibori bilan yangilik emas. Uning nazariy asoslarini filosofiya va pedagogikadagi gumanistik g‘oyalar tashkil etib, AQSH filosofi va pedagogi Djon Dyui va uning shogirdi V.K.Klipatrik tomonidan asoslangan edi. Djon Dyui ta’limni o‘quvchining maqsadiga qaratilgan faol faoliyati asosida tashkil qilib, bilimni uning shaxsiy qiziqishi bilan bog‘lash tarzida tashkil qilishni asosladi. Bunda o‘quvchining bilim egallashi, shaxsiy hayoti uchun muhimligini anglash asosida kiziktirish muhim hisoblanadi. Bilimni nima uchun va qachon egallash kerak? Bunda o‘quvchi uchun ahamiyati, real hayotiy vaziyatlar hal qiluvchi hisoblanadi. Hayotiy vaziyatlarda paydo bo‘ladigan holatlarni hal qilish uchun bilimdan foydalanish va yangilar uchun bilimlarni chuqurlashtirish ehtiyoji o‘quvchini bilim egallashga intilishni kuchaytiradi. Bunda o‘qituvchi bilim (axborot)ning yangi manbalarini aytishi yoki o‘quvchi fikrini yangi bilimlarni mustaqil izlashga yo‘naltirish muhim hisoblanadi. Turli manbalardan olingan bilimlar real hayotiy muammolarni echish va ma’lum natijalar berishi faoliyatni loyihalashni taqozo qiladi. Loyihalash metodining mohiyati o‘quvchilar qiziqishini ma’lum muammoga qaratib, uni hal qilish esa bilimlar asosida bo‘lishiga ishonch hosil qilishdir. SHu bilan birga olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish asosida bilim egallashga qiziqishni oshirish. Loyihalar metodi asosida o‘quvchilarni bilim, ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z bilimlarini mustaqil qo‘llay olish va shu asosida murakkab axborot maydonida to‘g‘ri yo‘nalish ola bilish va tanqidiy amaliy fikrlarni o‘stirish yotadi.

Amaliy topshiriq

1-topshiriq Loyiha ta’lim texnologiyasi haqida tushuncha yozing

2-topshiriq 1-soatlik dars loyihasi tuzing va izohlab o‘ting

3-topshiriq loyiha tuzishda nimalarga e’tibor berish kerak

Debat. Bu metodning asosiy maqsadi muammoning echimini topishda ta’lim oluvchi o‘zgalarni o‘z yondoshuvining to‘g‘riligiga inshontirishdir. O‘z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish buning uchun ishonarli dalillar va xulosalar topish ko‘nikmalarini shakllantirishda debatlar o‘tkaziladi. Bu metoddan foydalanib dars o‘tishda mahalliy mutaxassislardan (olim, shifokor, muhandis, ijtimoiy arbob, jurnalist va boshqalar) taklif etiladi.

Debatda qatnashish uchun iqtidorli ta’lim oluvchilar tanlanadi va ular ikki guruhiga ajratiladi: rezolyusiyani qo‘llash quvvatlaydigan va ularga qarshi chiquvchi ishtirokchilar; ular debatlarini o‘tkazish qoidasini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak. Guruh sardori reglamentga rioya qilishni kuzatuvchi – yordamchini tayinlaydi.

10-Mavzu: O'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi pedagogik texnologiya.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim to'g'risidagi qonunda umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilarni qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab tabaqalashtirilgan ta'limga o'tishni to'liq amalga oshirish lozimligi vazifasi qo'yilgan bo'lib, buni amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari maxsus tayyorlangan yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlanadi. Hamda ularning moddiy texnika va axborot ba'zasi mustahkamlanadi .

Amaliy topshiriq

- 1-topshiriq O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi haqida tushuncha yozing**
- 2-topshiriq pedagogic texnologiyalarni darsda qo'llashning ahamiyati haqida fikr bildiring**
- 3-topshiriq O'yinli o'qitish texnologiyalari haqida ma'lumot bering**

“Maktab o'rtoqlik sudi” (Rolli o'yin). Bu metod yordamida ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchilar bilan tarbiyaviy soatlar o'tkazish vaqtda foydalanish yaxshi natija beradi. Bu metoddan uzluksiz foydalanish maqsadida ommaviy –axborot vositalari, vaqtli matbuot nashrlari sahifalarida berilayotgan, yoshlar va ularning faoliyatlari masalasiga taaluqli bo'lgan materiallarni o'rganib, ularni mazmunini rolli jarayonini hosil etish orqali ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchilarga namoish qilish usilidan foydalaniladi.

“Adolat o'lkasiga sayohat”. Bu metod rolli o'yinlardan biri bo'lib, uning maqsadi-ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchilarning huquqiy bilimlarini chuqurlashtirish, ularda huquqiy idrok va zehnni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu o'yin bellashuv shaklida uyushtiriladi. Unda ikkita yoki to'rtta guruh ishtirok etib bir qancha shartlarni bajaradilar.

11-Mavzu: Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi

Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi ta'lim jarayonida o'quvchilarni real hayotdagi ishbilarmonlik vaziyatlariga tayyorlash va ularda muayyan ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ishlatiladigan samarali pedagogik yondashuvlardan biridir. Ushbu texnologiyaning maqsadi o'quvchilarga jamiyatdagi turli iqtisodiy, ijtimoiy va ishbilarmonlik holatlarini simulyatsiya qilish orqali ularga real dunyo tajribalarini taqdim etishdir. Ishbilarmonlik o'yinlari ko'pincha guruhli faoliyatlar bo'lib, ularning ichida muammoni hal qilish, jamoaviy ishlash, strategik qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlar rivojlanadi.

Quyida ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasiga misollar keltirilgan:

1. "Biznes-planni yaratish" o'yini

Maqsad: O'quvchilarga biznesni boshlash jarayonini tushuntirish va biznes-planni qanday yaratish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'rgatish.

Tavsif: O'quvchilarga kichik guruhlariga bo'lingan holda, ularning har biri o'z bizneslarini boshlash uchun biznes-reja tayyorlaydi. Ular turli sohalarida (restoran, texnologiya, moda, etc.) biznes yaratishlari kerak. Guruhlar o'zlarining biznes-rejalarini

yaratib, ularni boshqa guruhlar oldida taqdim etishadi. Taqdimotdan so‘ng, o‘quvchilar bir-birining biznes rejalarini baholashadi va muhokama qiladilar.

Ko‘nikmalar: Biznes-planning asosiy tarkibiy qismlari, jamoaviy ish, kommunikatsiya va tahlil qilish ko‘nikmalari.

2. "Ishbilarmonlik shaxsiyati" o‘yini

Maqsad: O‘quvchilarga biznes muhitida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy va professional fazilatlarni rivojlantirish.

Tavsif: O‘quvchilar ishbilarmonlik shaxsiyatini aniqlash uchun turli simulyatsiyalarni o‘tkazadilar. Har bir o‘quvchi o‘z shaxsiyati va xususiyatlarini aks ettiruvchi rolni tanlaydi va ishbilarmonlik muhitida o‘zini qanday tutishini ko‘rsatadi. Misol uchun, ular o‘zaro muzokaralar olib borishadi, jamoada ishlashadi yoki qarorlar qabul qilishadi.

Ko‘nikmalar: Shaxsiy va jamoaviy qaror qabul qilish, muloqot qilish, etakchilik, hissiy intellekt.

3. "Simulyatsiya o‘yinlari" (Business Simulation Games)

Maqsad: O‘quvchilarga biznes qarorlarini qabul qilishda muammolarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishni o‘rgatish.

Tavsif: O‘quvchilarga virtual biznes muhitida turli ishbilarmonlik vazifalari beriladi, ular o‘zlarining ishbilarmonlik kompaniyalarini boshqarishadi. Masalan, ular kompaniya mahsulotini ishlab chiqarishni boshlashlari, marketing strategiyalarini ishlab chiqishlari yoki moliyaviy qarorlarni qabul qilishlari mumkin. O‘yin jarayonida ular o‘zlari qabul qilgan qarorlarning natijalarini ko‘rib, ularni qayta ko‘rib chiqishlari kerak.

Ko‘nikmalar: Analitik fikrlash, strategik rejalashtirish, resurslarni boshqarish, qarorlar qabul qilish.

4. "Investitsiya o‘yinlari"

Maqsad: O‘quvchilarga investitsiya va moliyaviy boshqaruvning asosiy prinsiplarini o‘rgatish.

Tavsif: O‘quvchilarga investitsiya qilish, riskni baholash va daromad olish bo‘yicha simulyatsiya beriladi. Har bir guruh o‘z kompaniyasiga investitsiya kiritadi va o‘yin davomida qanday investorlar bilan hamkorlik qilish, qanday qarorlar qabul qilish zarurligini belgilaydi. O‘yin davomida kompaniya daromadi va zararini ko‘rib chiqishlari kerak.

Ko‘nikmalar: Moliyaviy tahlil, riskni boshqarish, iqtisodiy qarorlar qabul qilish, biznes strategiyasini ishlab chiqish.

5. "Muzokaralar o‘yinlari"

Maqsad: O‘quvchilarga biznes muzokaralarini olib borish va kelishuvlarga erishish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Tavsif: O‘quvchilar o‘rtasida turli biznes muzokaralari o‘tkaziladi. Har bir o‘quvchi biror kompaniya yoki tashkilot nomidan chiqib, boshqa guruhlar bilan muzokara olib borishi kerak. Masalan, ular mahsulot narxlarini belgilash, xizmat ko‘rsatish shartlarini kelishish yoki yangi shartnoma tuzish bo‘yicha muzokaralar olib boradilar. Muzokaralar natijasida, ular kelishuvga erishishlari yoki qarama-qarshi tomon bilan kelishmovchiliklarni hal qilishlari kerak.

Ko‘nikmalar: Muloqot, muzokara olib borish, hissiy intellekt, qaror qabul qilish.

6. "Strategik rejalashtirish o‘yini"

Maqsad: O‘quvchilarga uzoq muddatli biznes strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni o‘rgatish.

Tavsif: O'quvchilar o'z kompaniyalarining strategik rejasini ishlab chiqishadi, ya'ni ularning maqsadlari, resurslarni qanday taqsimlashlari va qaysi bozor segmentlariga kirishlari kerakligini belgilashadi. Har bir guruhga o'z biznes strategiyasini yaratib, uni boshqalarga taqdim etish vazifasi beriladi. O'quvchilar reja asosida turli strategiyalarni ko'rib chiqib, eng optimalini tanlashadi.

Ko'nikmalar: Strategik rejalashtirish, tahlil qilish, jamoaviy ishlash, qaror qabul qilish. Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyalari o'quvchilarga muhim ishbilarmonlik ko'nikmalarini o'rgatadi va ularga real hayotdagi vaziyatlarga tayyor bo'lish imkonini yaratadi. Bu o'yinlar o'quvchilarni yanada faolroq va ijobiy fikrlashga undaydi, shuningdek, ular orasida muloqot va jamoaviy ishni rivojlantiradi.

Amaliy topshiriq

1-topshiriq: Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi haqida tushuncha yozing

Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi – bu o'quvchilarga real hayotdagi ishbilarmonlik vaziyatlarini simulyatsiya qilish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ishlatiladigan pedagogik usuldir. Bu texnologiya o'quvchilarga biznes muhitida qarorlar qabul qilish, jamoada ishlash, muloqot qilish, muammolarni hal qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ishbilarmonlik o'yinlari o'quvchilarni murakkab iqtisodiy, ijtimoiy, va ishbilarmonlik holatlari bilan tanishtirib, ularga amaliy tajriba beradi. Ushbu o'yinlar o'quvchilarga o'z biznesini boshqarish, investitsiyalarni baholash, strategik qarorlar qabul qilish kabi ko'nikmalarni o'rgatadi.

2-topshiriq: Ishbilarmonlik o'yinlari metodlarini tushuntiring

Ishbilarmonlik o'yinlarida qo'llaniladigan metodlar turli muammolarni hal qilish, strategiyalarni ishlab chiqish va jamoaviy ishni rivojlantirishga yordam beradi. Quyidagi asosiy metodlar ishlatiladi:

Simulyatsiya metodlari – real ishbilarmonlik vaziyatlarini taqlid qilish va o'quvchilarni shu vaziyatlarda qarorlar qabul qilishga o'rgatish. Masalan, kompaniya boshqarish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini simulyatsiya qilish.

Raqobat metodlari – o'quvchilarni turli guruhlariga bo'lib, ular o'rtasida raqobatni tashkil etish. Har bir guruh o'z biznes strategiyasini ishlab chiqadi va amaliyotga qo'llaydi.

Jamoaviy ish metodlari – o'quvchilarning birgalikda ishlashini ta'minlash, muammolarni birgalikda hal qilish, qarorlar qabul qilish va resurslarni taqsimlash.

Strategik rejalashtirish metodlari – o'quvchilarga uzoq muddatli strategik reja tuzish va amalga oshirishni o'rgatish. Bu metod o'quvchilarga biznesning rivojlanish yo'llarini tanlash va to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Tahlil metodlari – o'quvchilarga ishbilarmonlik vaziyatlarini tahlil qilishni o'rgatish, resurslarni qanday taqsimlashni, qanday muammolarni hal qilishni o'rganish.

3-topshiriq: Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasini o'quv jarayonida samarali qo'llashda nimalarga e'tiborli bo'lish kerak

Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasini o'quv jarayonida qo'llashda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur:

O'quvchilarning yoshiga moslik – o'yinlar o'quvchilarning yosh va bilim darajasiga mos bo'lishi kerak. O'quvchilarga qiyin yoki oson bo'lmagan vazifalar berish, shuningdek, o'yinni qiziqarli va tushunarli qilish zarur.

Jamoaviy ishlashga rag'batlantirish – o'quvchilarni jamoada ishlashga, o'zaro muloqot qilishga va birgalikda qarorlar qabul qilishga undash. Ishbilarmonlik o'yinlari ko'pincha

guruhlar o'rtasida raqobatni tashkil etadi, shuning uchun jamoaviy hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Motivatsiya yaratish – o'quvchilarni o'yinlarda faollikka chaqirish, motivatsion usullarni qo'llash. O'yin jarayonida o'quvchilarni yutuqlari uchun mukofotlash va yomon natijalarni muhokama qilish orqali ularni o'rganishga rag'batlantirish.

Realistik vaziyatlarni yaratish – o'yinlar real ishbilarmonlik vaziyatlarini aks ettirishi, o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni o'rgatish uchun haqiqiy dunyo sharoitlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak.

Natijalarni tahlil qilish va muhokama qilish – o'yin tugagach, o'quvchilar o'z faoliyatini tahlil qilishlari, qanday muammolarni hal qilishni va qarorlar qabul qilishda qanday xatolarga yo'l qo'yganliklarini muhokama qilishlari kerak.

12-Mavzu: O'qitishni texnologiyalashtirishda metod va vositalar.

Bizga yaxshi ma'lumki, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzluksiz bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta'lim texnologiyasi o'quvchining ta'lim jarayonidagi etakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsada, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmaydi. Chunkiy unda xarakter, dunyoqarash etarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga ehtiyoj sezadi shu bois tarbiya texnologiyasi mantiqiy, ham tarkibiy jihatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi.

Amaliy topshiriq

1-topshiriq Tarbiya haqida tushuncha yozing

2-topshiriq Tarbiya metodlarini tushuntiring

3-topshiriq Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda nimalarga e'tiborli bo'lish kerak.

«3 x 4» texnologiyasi

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg'ulot talaba (yoki o'quvchi)larni aniq bir muammoni (yoki biror mavzuni) yakka holda (yoki kichik jamoa bulib) fikrlab hal etish, echimini topish, kup fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo (yoki mavzu) yuzasidan aniq bir tushuncha hosil kilishga, shuningdek, o'z fikrlarini ma'kullay olishga urgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)lar bilan avval yakka holda, sungra ularni kichik guruhdarga ajratilgan holda yozma ravishda utkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o'quvchi)larni erkin, mustaqil va mantikiy fikrlashga; jamoa bulib ishlashga, izlanishga; fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha xosil kilishga; jamoaga o'z fikrini o'tkazishga, uni ma'kullashga; qo'yilgan muammoni echishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda ugilgan mavzulardan egallagan bilimlarini kullay olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanishi: seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda (yoki kichik guruhdarga ajratilgan holda) o'tkazish hamda guruh a'zolarini bir necha marotaba joylarini o'zgartirib berilgan vazifalarni bajarishga mo'ljallangan.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatdagi kogoz varaklari (guruh soniga qarab), flomaster (yoki rangli kalam).

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larning umumiy soniga qarab, 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar ajratadi (kichik guruhlar soni 4 yoki 5 ta bulgani maksadga muvofik);
- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larni mashg'ulotning maksadi va utkazilish tartibi bilan tanishtiradi va xar bir kichik guruhga kogozning yukori qismida yozuvi bulgan varaklarni tarqatadi;
- o'qituvchi kichik guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan asosiy fikrni fakat uchta fikr, ya'ni uchta so'z yoki so'zlar birikmasi, yoki uchta ran bilan davom ettirishlari mumkinligini uktiradi va buni amalga oshirish uchun aniq vakt belgilaydi;
- guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan fikrni yozib davom ettiradilar;
- vazifa bajarilgach, guruh a'zolari urinlaridan turib soat mili yunalishi bo'yicha joylarini o'zgartiradilar, ya'ni 1-guruh 2-guruhning 2 -guruh 3-guruhning, 3-guruh esa 4 -guruhning (boshka kichik guruhlar bo'lsa, shu tarika) urniga utadilar;
- yangi joyga kelgan guruh a'zolari shu erda koldirilgan tarqatma materialdagi fikrlar bilan tanishib, unga yana yangi uchtadan o'z fikrlarini yozib kuadilar;
- guruh a'zolari yana yukoridagi kabi joylarini o'zgartiradilar, shu tarika kichik guruhlar o'z joylariga kaytib kelgunlariga kadam joylarini almashtirib, tarqatma materiallarga o'z fikrlarini kushib boradilar;
- o'z joylariga kaytib kelgan kichik guruhlar tarqatma materialda tuplangan barcha fikrlarni diqqat bilan ukib, ularni umumlashtirgan holda bitta yaxlit ta'rif yoki qoida holatiga keltiradilar;
- xar bir kichik guruhning mualliflik ta'riflari yoki qoidalarini guruh a'zolaridan biri takdimot qiladi.

13-Mavzu: Pedagogik o'yinlar va ularning turlari.

Pedagogik o'yinlar ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Bu o'yinlar orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar, balki amaliy ko'nikma va malakalarni ham rivojlantiradilar.

Pedagogik o'yinlarning asosiy turlari:

1. Didaktik o'yinlar: Bu o'yinlar o'quvchilarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga yordam beradi. Didaktik o'yinlar intellektual (aqliy), harakatli va aralash turlarga bo'linadi. Ular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.
2. Syujetli-rolli o'yinlar: Bu o'yinlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini oshirishga va mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llashga yordam beradi.
3. Ishbilarmonlik o'yinlari: Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi bu o'yinlar o'quvchilarning muayyan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga, kasbiy sifatlarini rivojlantirishga va ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga mo'ljallangan.
4. Innovatsion o'yinlar: Bu o'yinlar yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirishga va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan.
5. Tashkiliy o'yinlar: O'quvchilarning guruhliy faoliyatini tashkil etish va ularni hamkorlikka o'rgatish maqsadida qo'llaniladigan o'yinlar.
6. Munozarali o'yinlar: O'quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirish, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Amaliy topshiriq

1-topshiriq: Pedagogik o'yinlar haqida tushuncha

Pedagogik o'yinlar — bu ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, bilimlarni mustahkamlash va turli ko'nikmalarni shakllantirish uchun mo'ljallangan o'yin faoliyatlari. Pedagogik o'yinlar bolalar va o'quvchilarni faollashtirishga, ular orasida sog'lom raqobatni rivojlantirishga, ijodkorlik va muloqot ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Bu o'yinlar nafaqat o'qish yoki matematik bilimlarni o'rganish, balki axloqiy, estetik va ijtimoiy jihatdan ham o'quvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Pedagogik o'yinlar, shuningdek, bolalar va o'quvchilarga mustaqil fikrlashni o'rgatish, muammoni hal qilishda tezkorlik va e'tiborli bo'lishni ta'minlaydi.

2-topshiriq: Pedagogik o'yinlar metodlarini tushuntirish

Pedagogik o'yinlar metodlari — bu o'yinlar orqali ta'lim va tarbiya maqsadlariga erishish usullari. Ushbu metodlar bolalarning o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Pedagogik o'yinlar metodlari quyidagilarga bo'linadi:

- **Tanlovlar va viktorinalar** — o'quvchilarga o'rganilgan bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatini yaratadi va ularni o'zlashtirilgan ma'lumotlar bilan qiziqtiradi.

- **Simulyatsiyalar** — o‘quvchilarga turli vaziyatlarda qanday harakat qilishlarini o‘rgatadi, shuningdek, muammolarni hal qilishda kreativ fikrlashni rivojlantiradi.
- **Sahna o‘yinlari va rol o‘ynash** — o‘quvchilarga turli rollarni o‘zlashtirish, shaxsiy xususiyatlarini va ijtimoiy o‘zaro aloqalarini rivojlantirishga yordam beradi.
- **Yig‘ilish va guruh ishlaridagi o‘yinlar** — o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini va guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- **Jismoniy o‘yinlar** — bolalarning jismoniy rivojlanishiga yordam beradi va ularning koordinatsiyasini yaxshilaydi.

3-topshiriq: **Pedagogik o‘yinlar jarayonini texnologiyalashtirishda nimalarga e’tiborli bo‘lish kerak?**

Pedagogik o‘yinlarni texnologiyalashtirishda quyidagilarga e’tiborli bo‘lish kerak:

- **Interaktiv platformalar** — o‘yinlarni onlayn shaklda yoki interaktiv dasturlar orqali o‘tkazish, bu orqali o‘quvchilarning qatnashishini ta’minlash.
- **Digital o‘yinlar** — pedagogik maqsadlarga mos ravishda yaratilgan video o‘yinlar yoki mobil ilovalar, bolalarning bilimlarini qiziqarli tarzda rivojlantirishga yordam beradi.
- **Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR)** — o‘quvchilarga real hayotdan ko‘ra o‘rgatish va simulyatsiyalash imkoniyatlarini yaratadi. Misol uchun, tarixiy yoki ilmiy mavzularni virtual dunyoda o‘rgatish.
- **O‘yin tahlili** — o‘quvchilarning o‘yindagi faoliyatini tahlil qilish va shaxsiy yutuqlarni kuzatish uchun maxsus dasturlarni qo‘llash.
- **Boshqariladigan muhitlar** — tarbiyaviy o‘yinlarni o‘quvchilarning ehtiyojlariga va qiziqishlariga qarab moslashtirish uchun texnologik vositalardan foydalanish.

Pedagogik o‘yinlar va ularning turlari

Pedagogik o‘yinlar turli turlarga bo‘linadi, ulardan ba’zilari quyidagilardir:

- **Intellectual o‘yinlar** — bilimlarni oshirish va umumiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan o‘yinlar. Masalan, bilimlar tanlovi, viktorina, qiziqarli savollar va topshiriqlar.
- **Ijodiy o‘yinlar** — bolalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlar. Masalan, sahna o‘yinlari, qiziqarli hikoyalar yaratish yoki konstruktiv o‘yinlar.
- **Sport va jismoniy o‘yinlar** — bolalarning jismoniy faolligini oshirish va salomatlikni ta’minlash uchun o‘tkaziladigan o‘yinlar. Masalan, yugurish, basketbol yoki futbol.
- **Sotsial o‘yinlar** — bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradigan o‘yinlar, ular guruhda ishlash, boshqalar bilan muloqot qilish va muammoni birgalikda hal qilishga yordam beradi.

- **Raqamli o'yinlar** — o'quvchilarni kompyuter yoki mobil qurilmalar orqali o'qitishga mo'ljallangan pedagogik o'yinlar. Masalan, matematik o'yinlar, mantiqiy topshiriqlar.

KEYSLAR BANKI

1-vaziyat

Sardor – kirishimli, harakatchan bola. Applikatsiya yo‘li bilan yasagan gullarni ko‘rib, ularga baho berish vaqtida tarbiyachi Muroddan so‘radi:

- Murod, senga hammadan ko‘ra kimning ishi ko‘proq yoqadi?
- Nargizaning ishi, lekin men undan ham yaxshiroq yasay olaman.
- Xo‘sh, unda nima uchun yasamay o‘tiribsan? Uni qara, hamma bolalar ishlarini tugatishdi, sen bo‘lsang endigina novdachalar-ni yasabsan.
- Men hammadan keyin boshladim-da, agar yasab ulguranimdami, mening gulim hammanikidan chiroyli chiqardi. Buni qarang, men novdalarni qanday nozik qilib ishladim!

Musiqqa mashg‘ulotida Vatan haqida qo‘shik aytishardi. Murod qo‘shiq so‘zlarini hammadan ko‘ra qattiqroq aytardi. Nargiza degan qiz tanbeh berganida u shunday javob qaytardi: «Bu qo‘shiqni sekin aytib bo‘lmaydi, chunki u Vatan haqida. bizga so‘zlarni aniq, tushunarli qilib aytish kerakligini aytgan edi va men shunday aniq aytdim». Tarbiyachi unga savol berdi: «Xo‘sh, aytchi, sen aytayotgan qo‘shiq musiqa ohangiga mos kelyapti, deb o‘ylaysanmi? Mening nazarimda sen o‘zingcha ashula aytayotganga o‘xshaysan. Musiqqa esa o‘zicha chalinayotganday». Murod javob berdi: «Men musiqa ohangiga mos ashula aytayapman».

Savollar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolada o‘z-o‘ziga baho berishning shakllanib kelayotgan qanday o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlab o‘tish mumkin?
2. Temperamentning qaysi turiga mansub bolalar o‘z-o‘ziga ortiqcha baho beradi, qaysinisiga mansublari o‘z qobiliyatiga pastroq baho beradi?
3. Noadekvat ravishda o‘z-o‘ziga baho berishning shakllanishidagi ehtimol tutilgan sabablar xususidagi o‘z fikr-mulohazalaringizni ayting.

2-vaziyat

Muhayyo yaqinda yangi bolalar bog‘chasiga o‘tdi. U juda tashabbuskor, bolalar bilan tezda til topishib ketadigan qiz ekan, yangi sharoitda hammani hayron qoldirib bolalar bilan qisqa muddatda apoq-chapoq bo‘lib ketdi.

Qizlar maktab-maktab o‘ynashdi. Muhayyo pedagog bo‘ldi, qizlardan iborat «sinf» tuzildi, stollardan «partalar» qilindi va ularni bir tekis qilib terib chiqildi, doska yasab, uni ham «sinfga» osib qo‘yishdi. Alisher o‘yinni yo‘lga qo‘yishda yordam berib turdi. «Men ham sizlar bilan o‘ynasam maylimi?»

– deb so‘radi u. Bolalar rozi bo‘lishdi va Alisher bo‘sh stulga o‘tirdi. Ammo birdaniga sen o‘ynamaysan, sen mendan ruxsat so‘rashing kerak edi!» - dedi buyruq ohangida Muxayyo.

Kunlardan bir kun bolalar bog‘cha hovlisida ishlashardi. Ular besh kishidan iborat gruppalariga bo‘linib, hovlini yig‘ishtirishardi. «Biz ishimizni tamomlab bo‘ldik», – dedi Muhayyo. «Endi esa o‘rtoqlaringizga yordam beringiz», — dedi tarbiyachi. Bolalar to‘kilgan barglarni terib ola

boshladilar. Muhayyo esa qovog'ini solib o'shshayib oldi va xech narsa qilmay bir chekkada jim turaverdi. «Muhayyo bizga yordamlashib yubor, o'zi juda ozgina ish qoldi», — deb taklif qilishardi bolalar. Shu payt birdan tarbiyachi Muhayyoning ovozi eshitib qoldi. Muhayyo dugonasiga qarab shunday derdi: «Ishlab nima qilaman? Qancha ishlaganing bilan endi baribir bizni maqtashmaydi, chunki endi biz birinchi bo'la olmaymiz!».

Savollar:

1. Muhayyoning xulq-atvorida qanday motivlar yetakchi motivlar hisoblanadi?
2. Qizda bunday xulq-atvor shakllanishiga ilgarigi tarbiyaning qanday kamchiliklari ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin?
3. Muxayyoda qanday xarakter belgilari shakllanib bormoqda?
4. Bu kizning gruppaga yaqinda kelganligini hisobga olib uning xulq- atvoridagi salbiy belgilarini yo'qotish uchun bu qizning tarbiyasini qanday olib borish kerak?

3-vaziyat

Jajji qizcha Lolani shokolad berib siylashdi. Qizcha shokoladning bir chekkasidan ushoqdakkina bo'lagini sindirib oldi va yugurib onasining oldiga bordi-da: «Mang, bu Sizga», — dedi. «Mehribon kizim, aylanay sendan, — deb maqtadi onasi, — o'zing yeyaqol, sen bizning eng suyuqli qizimizsan».

Lola shokoladni buvisiga olib boradi. Buvisi shokoladni go'yo tishlab ko'rgan kishi bo'lib tamshanib qo'yadi va nabirasini maqtaydi: «Saxiy kizimdan aylanay. Shokolading juda shirin ekan! Rahmat!» Lola sovg'asini endi bobosiga olib boradi, lekin u ham olmaydi: «Menga shokolad bermasang ham yaxshi, saxiy qiz ekaningni bilaman»,— deydi. Bobosi uning boshini silab qo'yadi.

Endi Lola yugurib maktabda o'qiydigan opasining yoniga boradi va bir bo'lak shokoladni uning og'ziga tutadi. Opasi churq etmay, bir zumda shokoladni yeb qo'yadi! Lola yig'lab yuboradi. Oyisi xam, buvisi ham, bobosi ham birdaniga opasini koyib ketishadi: «O'zingdan kichkina qizni xafa qilgani uyalmaysanmi? Kap-katta qizsan-u, farosating yo'q!» Lola yig'idan to'xtab kattalarning gapiga quloq tutadi. Uning shu paytdagi qiyofasini ko'rgan kishi tomoshaning oxiri nima bilan tugaganidan bu qizcha to'la qanoat hosil qilganligini tushunib olishi qiyin emasdi.

Savollar:

1. Lolada xarakterning qanday salbiy belgilari shakllanib bormoqda?
2. Lolada saxiylik sifatlarini rivojlantirish uchun katta yoshli kishilar unga nisbatan qanday munosabatda bo'lishlari kerak?

3. Bolaning faoliyati, xulq-atvoriga kattalar tomonidan beriladigan bahoning va atrofdagi kishilarning unga ko'rsatadigan ta'siri bola xulq-atvorini, odatlarini va tegishli xarakter belgilarini shakllantirishda qanday ahamiyatga ega bo'ladi?

4-vaziyat

Olti yoshli Nozimaga xolasi shunday masala berdi: «To'rtta qushcha uchib kelib daraxtlarga qo'nishdi. Har bir daraxtga bittadan qushcha qo'ngan edi, bitta qushcha ortib qoldi, bitta daraxtga ikkitadan qushcha qo'ngan edi – daraxt ortib qoldi, daraxtlar nechta edi?» Nozima masalani takror-takror aytib berdi-yu, lekin uni sira hal qila olmadi. Shunda xolasi kog'ozda uchta daraxt va to'rtta qushcha shaklini qirqib yasadi. Nozima mana shu daraxt va qushchalar yordamida masalani tez va to'g'ri yechdi.

Savollar:

1. Nima sababdan Nozima masalani xal qilishi uchun qog'ozdan daraxt va qushchalarning shaklini qirqish zarur bo'lib qoldi?
2. Bu yerda maktabgacha yoshdagi bolaga hos bo'lgan qanday fikrlash xususiyatlari namoyon bo'ldi?
3. Bolaga ta'lim berish jarayonida bunday xususiyatlarni qay tarzda hisobga olish kerak?

5-vaziyat

Guruhga burab yurg'iziladigan yangi o'yinchoq – kuchukcha keltirishdi. Tarbiyachi uni qo'lga olib ko'rdi va o'yinchoqni buradi: kuchukcha gir-gir aylanib vovullay boshladi. Tarbiyachi o'yinchoqni bolalarga yaqinroq olib keldi. Alisher qo'rqib ketib kuchukchani oyog'i bilan tepib yubordi. Barcha bolalar kuchukka raxmi kelib, nega tepasan, hammayog'i og'riydiku, deb achina boshlaydilar. Guruhga vrach kirib keldi va bolalar bilan kuchukchani qari lat yeganini tekshira boshladi. Akmal Alisherning yomon ish qilganligini so'zlab berdi. Bola darhol o'zgardi va yig'lab-yubordi: «Men bunday bo'lishini xohlamagan edim. Men endi bunday qilmayman. Men bunday qilishni xohlamagandim! Eshitayapsizmi!?» Tarbiyachi Alisherga kuchukchani silab qo'yishni taklif qildi, u rozi bo'ldi va shu zahoti yig'idan to'xtab, ovunib qoldi.

Savollar:

1. Alisherning xulq-atvorida his-tuyg'ular kechishining qanday o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ldi?
2. Uni qaysi temperamentga kiritish mumkin?

MUSTAQIL TA'LIM MAZMUNI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy hujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Kreativ pedagogning fikrlashi an'anaviy pedagog fikrlashidan farqli tomonini tahlil qiling.
2. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi nimalarga olib keladi?
3. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativlikning turli shakllarini aytib bering.
4. Ijodkorlik, ijodkor shaxs, kreativ shaxs tushunchalariga ta'rif bering.
5. Pedagogning kompetensiya tarkibiga kiruvchi turlarini tahlil qilib bering.
6. Zamonaviy pedagog-tarbiyachining funksional vazifalarini tahlil qilib bering.
7. Pedagogning ijodkorlik sifatlari.
8. Innovatsion jarayon: pedagog va uning faoliyatining roli
9. Pedagogning nutq madaniyati.
10. Pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyati, pedagogik nazokat, samimiylik va insonparvarlik.
11. Pedagogik ta'sir etishda tashqi ko'rinishning roli.
12. Zamonaviy tarbiyachi imidji.

GLOSSARIY

Audio va video vizual materiallar – o‘quv axborotlarini kompyuter texnologiyasi yordamida ovozli va vizual shaklda qabul qilinishini ta‘minlovchi materallar .

Video animatsiyalar – chizilgan (rasmli) yoki kichik hajmli obraz (hajmiy, qo‘g‘irchoq yoki o‘yinchoqli ob‘ekt)larni harakatga keltirish va bu harakatning har bir bosqichini ketma-ket suratga olinganligini ifodalovchi elektron tasvirlar .

Virtual stendlar – 1) real ob‘ekt, predmet, jarayon, voqea va hodisalarning elektron modeli; 2) matn, rasm, sxema, jadval, diagramma va b. shakldagi axborot, jarayon hamda virtual muhitlarni yaratish, saqlash, ishlov berish, raqamlashtirish va tizimli ravishda amalga oshirishni ifodalovchi kompyuterli vosita.

Ijod – ijtimoiy sub‘ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.

Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo‘ladigan individual xususiyati .

Ijodiy tafakkur – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi .

Ijodiy topshiriqlar – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo‘naltirilgan masalalar tizimi .

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs.

Ijodkor shaxsni tarbiyalash – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g‘oya, ularni amalga oshirish ko‘nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish .

Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub‘ektlar bilan muloqotga kirisha olish .

Imidj - (ing. «*image*») tushunchasi «siymo», «timsol», «qiyofa» va «obraz» ma‘nolarini anglatadi. Mohiyatiga ko‘ra esa ushbu tushuncha yordamida «joziba»,

Imitatsion virtual trenajyor - (ingl. «*train*» – «tarbiyalamoq», o‘qitmoq», «mashq qildirmoq») – elektron shakldagi o‘quv-mashqlantiruvchi qurilma bo‘lib, u yordamida mehnat faoliyatining real sharoiti odellashtiriladi, muayyan faoliyat (m: mashina (mexanizm)ni boshqarish, murakkab stanokda ish bajarish yoki harbiy texnika sirlarini o‘zlashtirish) ko‘nikmalari shakllantiriladi, ko‘nikmalar malakalarga aylantiriladi hamda hosil bo‘lgan malakalar takomillashtiriladi

Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish

Innovatsion muhit – pedagogik yangilikning vujudga kelishi, ularning jadal o'zlashtirilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi.

Innovatsion pedagogik g'oya – tizimlashtirilgan pedagogik g'oyalar; o'quv jarayoni bashorat etilishi, ma'lumotlar to'plami.

Innovatsion ta'lim - 1) ta'lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar; 2) yangilangan yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni.

Innovatsion ta'lim muassasasi – yangi tipdagi ta'lim muassasalari: akademik litseylar, maktabgacha ta'lim kompleksi, shaxsiy maktabgacha ta'lim muassasalari, ixtisoslashgan sinf va maktablar, gimnaziya, turli yo'nalishli, predmetlari chuqur o'rgatiladigan maktablar va h.k.

Innovatsion texnologiya– pedagogik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni (faollik, didaktik o'yinlar, evristik, kreativ, muammoli, loyihlashtirilgan, AKT texnologiyalari).

Innovatsion o'qitish – 1) yangicha o'qitish tizimi, 2) va ta'lim oluvchilarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o'qitish jarayoni (algoritmash, loyihali, modulli va b.)

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualii muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat

Innovatsiya - faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qiladi.

Insonparvarlik - insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi to'g'risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxurlik qilishni ifodalovchi tushuncha.

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, aralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish.

Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi – ijodkorlikning jarayon va natija sifatida ob'ektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko'rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta'limot .

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi .

Kasbiy-ijodiy faoliyat – mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati.

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.

Kreativlik - (lot., ing. «create» – yaratish, «creative» yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi.

Ko'nikmalar – pedagogning kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usulidir.

Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish sub'ektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig'indisiga aytiladi, zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi.

Malakalar – pedagogning ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisidir.

Moderator - qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

Muloqot – 1) kishilarning o'zaro aloqasi, bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlari kishilar o'rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni; 2) kishilarning bir-birlariga ta'sir ko'rsatishi asosida ular o'rtasida ro'y beradigan axborot almashinuvi.

Muloqot jarayonida axborot almashish vositalari – shaxslararo muloqot jarayonida axborot almashinuvi ta'minlovchi moddiy va nomoddiy narsa, omillar (og'zaki va yozma nutq, paralingvistik va ekstralingvistik tizimlar, muloqotning tashkiliy ko'lam va vaqti, ko'z qarashlar yordamida tashkil etiladigan aloqa, belgilarning optik-kinetik tizimi (mimika, pantomimika, jestlar – gavda, qo'l va oyoq harakatlari).

Muloqot madaniyati – 1) muloqot jarayonini axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik; 2) pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri.

Multimedia – bir necha ko'rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi

obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy tushuncha.

Multimedia mahsulotlari – o‘zida AKTning dasturiy va texnik imkoniyatlari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materialini tinglovchilarga yetkazib berilishini mujassamlashtirgan ishlanma (mahsulot)lar.

Novatsiya (yangilanish) - faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat.

Nutq apparati – nutqni hosil qilishda ishtirok etuvchi organlar.

Nutq madaniyati – o‘z fikrini nutq yordamida mantiqli, to‘g‘ri, obrazli, aniq va ifodali yetkazib berish malakalarining o‘zlashtirilganlik darajasi .

Nutq texnikasi – nutqni tinglovchi yoki ta‘lim oluvchiga yetkazishda qo‘llaniladigan vositalar majmui .

Nutq hosil qiluvchi organlar – nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi organlar (o‘pka, ikkita bronx, traxeya, kekirdak, bo‘g‘iz, hiqildoq, halqum, tishlar, burun bo‘shlig‘i, lablar) .

Nutqli (yoki tovushli) nafas olish (fonatsion, yunon. «phono» – «tovush») – nafasning nutq jarayonidagi olinishi.

Pantomimika – bu gavda, qo‘l, oyoq harakatidir. Tarbiyachi mashg‘ulotda o‘quv ma‘lumotlarini bayon qilar ekan, gavda holati orqali ma‘lumotlarning obrazini chizadi, bolalar bundan zavqlanadilar, ichki his-tuyg‘ulari, ularning tashqi hissiyotlari bilan qo‘shilib butun borliq ma‘lumotlar mazmunini o‘zlashtirishga qaratiladi.

Pedagogik ijod – pedagog (tarbiyachi)ning mahorat pillapoyalaridan ko‘tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo‘lni, bu yo‘ldagi qiyinchiliklardan qo‘rqmaslikni anglatadi

Pedagogik qobiliyat - pedagogik jarayonda tarbiyachining aqliy, emotsional – irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog‘liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat - tarbiyachilik burchi, mas‘uliyati, qadr-qimmati, vijdoni, axloqiy e‘tiqodini nazarda tutib, uning talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo‘yligi, to‘g‘riligini anglatadi .

Pedagogik mahorat - tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, hayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o‘z fanini chuqur va atroflicha bilishda, psixologik va metodik tayyorgarlikda, yoshlarni o‘rgatish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab-topib amaliy faoliyatda qo‘llashida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik muomala – kasbiy faolligining bir ko‘rinishi bo‘lib, ta’lim- tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining o‘zaro ta’sir va hamkorligini aks ettiradi.

Pedagogik nazokat(takt) – tarbiyachining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o‘lchovi, me’yori va ta’sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi.

Pedagogik texnika – pedagogning nafaqat ta’lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnika – o‘qitish, ta’sir ko‘rsatish, ta’lim tarbiya oluvchilarga o‘z his-tuyg‘ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalaydi .

Prezentatsiya - (taqdimot; lot. «praesentatio» – taqdim etish) – muayyan mavzu yoki muammo bo‘yicha o‘quv (ilmiy, amaliy) xarakterdagi materiallarning ish qog‘ozlari (oddiy yoki vatman qog‘ozlar) hamda axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter, proektor, protsesor va b. qurilmalar) yordamida taqdim etilishi.

Psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, ta’lim oluvchilar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.

Raqamli video lavhalar – o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga yordam beradigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan 3D o‘lchamdagi zamonaviy o‘quv manbai .

Samimiylilik - atrofda kishilar bilan munosabatda sofdillik, vijdonlilik ifodalanadigan shaxsiy sifat.

Ta’lim innovatsiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakani boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Tyutor - (*Tutorem-lotincha*) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba’zi hollarda ma’ruza si bilan tinglovchi orasidagi bog‘lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma’ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi.

Fasilitator - (ingliz tilida *facilitator*, lotincha *facilis*–yengil, qulay)- guruhlardagi faoliyat natijasini samarali holash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

Fidoyilik - tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, otabobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to'plash, o'rganish, avaylab saqlash va targ'ib qilish.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish .

Edvayzer (advisor) – (fransuzcha-avisen—o'ylamoq) tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Elektron albom – rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqar grafik tasvirlar hamda ularning izohlarini o'zida aks ettiruvchi elektron shakldagi to'plam .

Elektron atlas - (yunoncha «Atlas» – birinchi bo'lib, osmon globusini yaratgan afsonaviy Liviya podshosining nomi) – muayyan o'quv moduli (o'quv fani) bo'yicha tavsiya etilgan va o'ziga xos grafik tasvirlarga ega bo'lib, o'quv maqsadlariga ko'ra foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. - 120 b. ISBN 978-9943-9725-1-3.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-637-son. 23.09.2020. – T.: 2020. – 75 b. //https://lex.uz/docs/5013007
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni. www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. 2008.
5. O'zbekiston Respublikasining «Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni. 2016.
6. O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonuni. 2017.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60 son Farmoni. www.lex.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi. PF-5198-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi «2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5308 sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-sonli qarori. 2016 yil.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261- sonli qarori. 2017 yil.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentabrdagi «Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3276-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3305-sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 19 iyuldagi «Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 528-sonli Qarori
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi «Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 929-sonli Qarori
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 18 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning tizimidagi muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi 991-sonli Qarori.

17. Mirziyoev Sh.M. «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2016.
18. Mirziyoev Sh.M. «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi» mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: O‘zbekiston, 2017.
19. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston. – 2017.
20. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017.
21. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
22. Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. - T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006
23. Olimov Sh.Sh., Durdiyev D.Q. Pedagogik texnologiya. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2019.
24. Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: Darslik. - Toshkent Moliya instituti. - T.: «Iqtisod-moliya». 2009.
25. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2008.
26. Axmedjanov M.M., Xo‘jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014.
27. Bodrov V. A. Informatsionnyy stress. M, PER SE, 2000.
28. Breslav G. M. Psixologiya emotsiy. M., 2004.
29. Vilyunas V.K. Psixologiya emotsiy, M., 2005.
30. Vodopyanova N.Ye., Starchenkova Ye.S. Sindrom vygoraniya: diagnostika i profilaktika. 2-ye izd. – SPb.: Piter, 2008.
31. G‘oziev E. G‘. Pedagogik psixologiya. –Toshkent: Universitet, 2014.
32. Djalalova D.X. Osnovnye tendensii razvitiya sovremennoy yaponskoy shkolы. Avtoreferat dis.k.p.n. 2004.
33. Djusubalieva D.M. Sravnitel'naya pedagogika. Metodicheskiy almanax.- Almaty, 2007.

34. Ilin Ye.P. Emotsii i chuvstva. M., 2008.
35. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob:- Toshkent, «Ilm-Ziyo» nashriyoti. 2012.
36. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: «Moliya-iqtisod» nashriyoti, 2009.
37. Ishmuhammedov R., Abduqarodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar / Ta’lim muassasalari pedagog tarbiyachi-pedagog tarbiyachilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: «Iste’dod» jamg‘armasi, 2009.
38. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi pedagog tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.
39. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari /– T.: «Sano standart» nashriyoti.
40. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.
41. Mutalipova M.J., Xodjaev B.X. Qiyosiy pedagogika.-T: 2015
42. Musurmanova O. va boshqalar Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim atamalarining izohli lug‘ati/ -T.: Bekinmachoq plyus 2011.
43. Nishonova Z. T. Psixologik xizmat.- Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
44. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
45. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.
46. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
47. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006.
48. Tolipov O‘.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – T.: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2006.
49. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Mashg‘ulotlik. Iqtisod -moliya, 2011.
50. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
51. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta’limga qamrab olish / Maktabgacha ta’lim. -Toshkent, 3-son, 2017.
52. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013.
53. <http://www.edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

54. <http://www.uzedu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.
55. www.mdo.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi sayti.
56. <http://www.president.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.
57. <http://www.gov.uz>– O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.
58. <http://www.lex.uz>– O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi sayti.